



DO'STIM Mening KITOBIM



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN
HIKOYALAR

DO'STIM Mening— KITOBIM

KICHIK MAKTAB YOSIDAGI BOLALAR UCHUN
HIKOYALAR

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika Ta'lim markazi nashrga tavsiya etgan



„Ensiklopediya“ nashriyoti

UO'K: 821.512.133-93

KBK: 83.8(5O')

X 98

**Tuzuvchilar:
Hamidulla MURODOV,
Sunnat XO'JAAHMEDOV**

Ushbu kitobda qalamga olingan har bir katta-kichik asar yosh kitobxонни nimagadir da'vat etadi, о'rgatadi. Asarni о'qigan har bir o'quvchi davrimiz, mustaqil elimizga mos halol, о'qimishli bo'lib kamol topishida o'ziga xos maktab rolini bajaradi.

Kitob ota-onalar, boshlang'ich sinf o'qituvchi hamda o'quvchilariga mo'ljallangan.

Abduila Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 3023/14-44

ISBN 978-9943-07-757-7

© H. Murodov, S. Xo'jaahmedov
© „Ensilopedia“ nashriyoti, 2022



CHUMCHUQ BOLA

Baxtiyor chumchuq bolasini rosa qiyndidi: suvga solib suzdirdi, ikki qo'li bilan qanotlarini yoyib, hilpiratdi... Keyin oyog'iga ip bog'lab, ko'chaga olib chiqdi.

Ko'chada Tal'atga duch keldi. Tal'at Baxtiyorni ko'rди-yu qovog'i solindi. Baxtiyor judayam o'jar bola edi, shunda Tal'at unga yalinib o'tirmay, shoshapisha kissasini kovlashtirdi: yarimta o'chirg'ich bilan kecha ochgan qizil qalamni bor ekan...

- Baxtiyor, chumchuqni qayerdan olding?
- Bug'doyzordan, chigirtka tutayotganimda do'p-pim bilan urib yiqitdim.

Tal'at yalt etib Baxtiyorga qaradi, so'ng bir narsa o'yldi shekilli:

- Alishmaysanmi? – deb so'radi.
- Alishaman, nimang bor? – dedi hovliqib Baxtiyor.
- Mana bo'yoq qalam, shunga berasanmi?
- E-e! Tirik chumchuqni bitta qalamgami? Boshqa narsang yo'qmi?






– Agar xo‘p desang, mana bu o‘chirg‘ichimni ham beraman.

Baxtiyor bilagiga o‘rab olgan pishiq, ingichga ipni bo‘shatib, Tal’atdan o‘chirg‘ich bilan qalamni oldi-da, chumchuq bolasini berdi. Keyin qiziqsinib:

- Buni alishib nima qilasan? – dedi.
- Hozir bilasan nima qilishimni.

Tal’at chumchuq bolasining oyog‘idan avaylab ipni yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-da, keyin birdan osmonga qo‘yib yubordi. „Bor, uchaver!“ So‘ng Baxtiyorga qaradi...

Baxtiyor goh qo‘lidagi o‘chirg‘ich bilan qalamga, goh pat-pat qanot qoqib bug‘doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolaga, goh istehzo bilan ku-limsirab turgan Tal’atga jovdirab, nima qilishni bilmay, hang-mang bo‘lib qoldi.





GUL VA TIKAN

Yo'lakda, aravachada ikki oyoqsiz, o'ng qo'lsiz, chamasi ellik yoshlarga borib qolgan bir kishi borardi. U har o'n-o'n besh qadamda bir nafas dam olar, o'tgan-qaytganlarga jilmayib qarar, keyin yana aravachasini yurgizib ketardi.

U bir do'nglikka chiqayotganda qo'li tolib qoldi. Aravacha orqaga keta boshladi. Uni to'xtatishga majoli yetmadi. Sochini timqora rangga bo'yab olgan qiz bilan soqol qo'ygan yigit unga beparvo, qo'ltiqlashib, kulishib o'tib ketishdi.

Aravacha hamon orqaga ketardi. Buni ko'chaning narigi tomonida ketayotgan atlas ko'ylakli qizlar ko'rib qolishdi va yugurib kelib, qo'lsiz-oyoqsiz kishini chiqarib qo'yishdi...



QOR YOG‘MOQDA

Sokin tun. Qor yog‘yapti. Bolalarning beg‘ubor qalbi to‘lib-toshib oqayotgan daryoday jo‘shqin. Bahorda ko‘m-ko‘k o‘tloqlarda oppoq kapalaklarni ushlar moqchi bo‘lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqli-a! Ona tabiat shunday go‘zalki, uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchaning oppoq hovuchiga ohista qo‘ndi. Quvonchdan uning yonoqlari shunday yashnab ketdiki, bu daqiqalar tasviriga til ojiz. Qor shunday beg‘ubor qizchaning qo‘liga tushganidan, birdan erib ketdi. Tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi.

Bir zumdek hamma yoq oq choyshabga burkandi. Haligina qor zarrachalarini ushlashga intilayotgan bolalar, endi undan hovuchlab-hovuchlab olib, dumaloqlab, qorbo‘ron o‘ynashdi.

Tun. Hamon qor yog‘ardi.



QOPLON

Mening bir itim bor. O'zi sap-sariq, katta, lekin qopag'on emas. Hech kim unga parvo qilmaydi, u ham bekorga vovullamaydi. Oti Qoplon. Oti vahimali-a, to'g'rimi? Men uni har kuni ko'cha changitib yuradigan boladan olganman. Qanday qilib olganimni eshiting. Bir kuni maktabdan kelayotsam, haligi bola bir ola-bula kuchukchani qiynayotgan ekan. Kuchukchaga rahmim kelib, qo'lidan tortib oldim. U rosa toliqqan ekanmi, qo'limga olishim bilan mudrab, u xlab qoldi. Shunda bola yig'lamsirab „Kuchugimni ber“, dedi. Qancha yalingani bilan bermadim. Keyin bahonaga o'tdi.

– Kuchuk meniki emas, – dedi u.

Biroq ishonmadim. Chunki bundan avval „Ber, bo'lmasa, oyimga aytaman“, degan edi-da. Bermaganidan keyin bahona topdi. Keyinroq bilsam, bu kuchukni oyisi haydab yuborgan ekan, shuncha kundan beri o'rtog'inikida boqibdi. So'ng o'rtog'ining oyisi ham ko'chaga quvibdi. Endi nima qilishni





bilmay, kuchukni qiyayotgan ekan. Biror narsaga alisharmikan, deb o'yladim. Qo'limda koptogim bor edi. Biroq bola alishgisi kelmadi. Ammo qistayverganimdan so'ng tekinga bergandan ko'ra, koptokka alishganim yaxshi, deb o'yladi. Uyga xursand bo'lib qaytdim. Chunki kuchuk judayam yaxshi edi.

Uni boqdim. Katta bo'lgan sari rangi boshqa tusga kirdi. Keyin sariq bo'lib qoldi. Kuchukcham qo'shnimga ham o'rgandi. U har kuni kuchukka suyak tashlar edi. Lekin Qoplon qo'shnimizdan ham meni yaxshi ko'radi. Keyinchalik qo'shnimiz itimni olib chiqib ketdi. Qoplon bo'lsa arqonni uzib qaytib keldi. Ikki marta shunday bo'ldi. Qoplon menga juda o'rgangan: yot desam yotadi, o'tir desam o'tiradi. Men ham uni juda yaxshi ko'raman.

MUSICHA

Asqar hovlidagi karavotda chalqancha yotib kitob o'qirdi. Ahyon-ahyonda yon-veriga qarab qo'yardi. Birdan ko'zi nariroqda donlayotgan musichaga tushdi. Sho'xligi qo'zib qo'rqiymoqchi bo'ldi. Mushugiga o'xshab miyovladi. Qattiqroq „miyovlamoqchi“ edi-yu, lekin fikridan qaytdi.

Biroz qarab turdi, oyoq tovushi eshitildi. Musicha uchib ketdi. Karavot tagida pisib turgan Mosh ham qochib qoldi. Asqar, kim ekan, deb o'rnidan turmoqchi edi, eshikda ukasi paydo bo'ldi. Yana yonboshlab kitobini o'qishga kirishdi.

Musicha yana o'sha joyga kelib qo'ndi... Asqar birozdan keyin mushukning pixillab ko'chaga qochganini ko'rib qoldi. Musicha turgan joyiga qarasa, uch-to'rtta mayin pat ko'rindi. Turib ko'chaga chiqdi. Yo'lakda qon izlari qolibdi. Qonxo'r mushugini tutolmay qaytgan Asqar dam uyga kirib, dam hovliga chiqib yer tepina boshladni. Axir uni o'zi topib kelgandi-da! Mana endi oqibati! O'g'ri sichqonlarni ushlash o'rniqa begunoh qushlarni yeydigan bo'libdi. Uning birinchi marta mushugidan jahli chiqqan edi. Musichaga juda achindi.



O'XSHAMAGAN RASM

O'qituvchi dars so'ngida bolalarga:


- Kelgusi darsimizga toychoq rasmini chizib kelasizlar, – deb uyga vazifa berdi.
- Nodirjon uyga kelibeq, rasm chizishga kirishdi. Ammo chizganlari toychoqqa o'xshamadi.
- Yaxshisi chizmayman, – dedi u o'ziga-o'zi. – Rasmni dadamga chizdiraman.

Shunday qildi ham. Dadasi ishidan kelganda erkalanib toychoq rasmini chizib berishini so'radi. Ertasiga darsga borganda dadasi chizib bergen rasmni ko'rsatib, hammaga rosa maqtandi.

- Ko'ryapsizlarmi, mana bu – men chizgan toychoq!

Bolalar uni maqtanchoqligini yaxshi bilishsa ham, u chizgan rasmni ko'rish uchun atrofini o'rab olishdi.

- Naq toychoqning o'zi! – dedi biri.
- Men ham shunday chizganimdam, – dedi yana biri.
- Rosti bilan o'zing chizdingmi, Nodir?!





– Albatta, o'zim-da. Axir birov chizib bermaydi-ku...

Dars boshlanganda ustoz Nodirjonga toychog'ini doskaga chizib berishini topshirdi.

– Ha, o'g'lim, nega rasm chiza olmayapsan? – so'radi ustoz bo'rni ushlagancha o'ylanib qolgan Nodirjonga qarab.

– Bo'r yaxshi emas ekan, – dedi Nodirjon shalvirab. Bu gapdan o'quvchilar kulib yuborishdi. Nodirjon esa qizarib ketdi.

Nodirjon qanchalar urinmasin, u chizgan rasm dadasi chizgan rasmga o'xshamasdi. Oxiri qilgan aybi – rasmni dadasiga chizdirganiga iqror bo'ldi.

– Buni allaqachon sezgandim, – dedi ustozি. – Shuni tan olganing, to'g'ri gapirganing uchun ham seni kechirdim.

Nodirjon bu gapdan biroz yengil tortgandek bo'ldi...



ONA QO'SHIG'I

Erta sahar. Xurshidi jahon hali yotog'idan bosh ko'tarmagan. Tabiat biram orombaxsh... Sarhez qushlar vijir-vijir qiladi, ariqcha bir maromda shildiraydi, ipakday mayin tong yeli bog' oralaydi...

Maftunkor tong qo'ynida bir qo'shiq yangraydi. Uni ona kuylayapti. Nazarimda, shu onda qushlarning chug'uri-yu ariqchaning shildirashi tinganday, shabada to'xtab qolganday. Butun borliq shu qo'shiq sehriga g'arq bo'liday...

Ona shu qo'shiqqa qo'shib orzu-tilagini kuylaydi, farzandiga iqbol tilaydi... Men ham bir zum mahliyo bo'lib qolaman.

- Nima qilib turibsan, bolam?!
- Cho'chib o'girildim. Ortimda bobom turardilar.
- Eshitmayapsizmi!? – hayajon bilan shivirladim. Bobom birpas tinglab turdilar...
- Aytishlaricha, – salmoqlab gap boshladilar qo'shiq tingach, – quyosh haroratni, oy yorqinlikni, shabnam tiniqlikni, tonglar musaffolikni, osmon beg'u-



borlikni ana shu qo'shiqdan olar ekan. Ona ana shu qo'shiq orqali farzandlar qoniga soflikni, odamlarga ishonch, Vatanga muhabbat, ona Zaminga e'tiqod hissini singdirar ekan.

...Erta saharda osudalik bag'rini tilab yana o'sha qo'shiq yangraydi. Jarangdor qo'shiq. Butun borliq shu qo'shiq sehriga g'arq... Onaning ana shu muqaddas qo'shig'ini eshitish baxti hammaga ham nasib etsin, degim keladi...





YOMONGA QO'SHILIB...

Ekinzor yonida sigirni yetaklab boqayotgan G'iyoş o'ziga ro'baro' kelayotgan sinfdoshidan so'radi:

- Qo'yningdagi nima?
- Gilos, ol, yeb ko'r, – bir siqim uzatdi Salim.
- Uzumzor yaqinidagi gilosdanmasmi bu?
- Topding. Xuddi o'shandan.
- Iye – Salimga tikilib qoldi G'iyoş, – Gilosli joy ham sizlarga qarashlimi? O'tgan kuni ham kelayotganding qo'yningni to'ldirib, o'sha yoqdan.

Sinfoshi avvaliga nima deyishni bilmay, gunoh-kordek sezdi o'zini. Bahona topgach, dadillandi:

- Bilasan, dadam fermer xo'jaligida katta bog'bon. Gilosdaka mevalarning qanchasini ekib tashlagan. Sening dadang ham. To'g'rimi, G'iyoş? Shunday ekan gilosda bizning ham haqqimiz bor.

G'iyoş:

- Baribir fermer xo'jaligiga qarashli bog'-da, – dedi-yu, Salimning ko'nqliga qaradi. „Xo'p desang, birga



gilosga boramiz, kechroq“, – deganiga rozi bo'ldi. Bundan Salim xursand: „Gilosni rosa shilganimni hech kimga aytolmaydi, tili qisiladi. O'zing ham rosa olding-ku“, – deyman.

Kechki payt. Shabada g'ir-g'ir esmoqda. Jo'xorizor panasidan shivir-shivir ovoz keladi:

- Oldin gilosga sen chiq, – G'iyo'sni turtadi Salim.
- Yo'q. Avval sen chiq.
- Sen bemalol terib tush. Keyin men.

Bo'ljadi, G'iyo's daraxtga chiqdi. Gilosdan dam og'ziga, dam cho'ntagiga solarkan, pastga ham tashlardi: „Ol, yeb tur“.

Shamol borgan sari g'uvullar, shoxlarni belanchak-dek tebratardi. G'iyo'sning og'irligidan yoydek shox butog'idan ajrab, silkinganicha yerga bosh urdi.



YELKANCHALAR

Bolakay oyoqlarini uzatgancha yelkanchalar yasayapti. Bitganlarini do'mboq barmoqchalari bilan tekislab-tekislab yoniga qo'yadi.

Qushlar qo'shig'i bola uchun e'tibordan soqit. U yelkanchalar yasayapti, bitta, ikkita, uchta... juda ko'p.

– Bolakay, shunchani nima qilasan?

U bizni eshitmaydi.

Nihoyat tugatdi. Yelkanchalarini bag'riga bosib, ariqcha tomon pildirab ketdi. Ularni avaylab, birin-ketin suvga qo'ydi. Ariqchadagi zilol suv yelkanchalar ni o'z manzili tomon yetakladi. Bolakay xursand edi.

Yelkanchalar ila kichkintoyning olamga sig-mas quvnoqligi, beg'am, betashvishligi oqib borardi go'yo.

Afsus, bu shodlik uzoq davom etmadı. Girdob oppoq yelkanchalarni suvga botirdi. Bolakay yelkanchalarni yana suvga qo'ydi, ammo avvalgi viqor yo'q edi endi. Bu ham hayotning kichik bir qonuni ekanini bolakay hali bilmasdi. Bolaning ko'zlariga yosh to'ldi.



GUL VA YURAK

O do'stim, nechun gulni, olamga go'zallik, shodlik ulashuvchi, muhabbat ramzi bo'l mish bu nozik gulni qiyinarsan. Iltimos, qo'y, hayotning jajji quvonchi bo'l-gan gulga, gullarga ozor berma. Unsiz shivirlayotgan yaproqchalarni shafqatsizlarcha yulma. Sendagi qalb, yurak inson yuragi-ku, eshitmayapsanmi, u dukullayapti, ana, eshit... naqadar sodiq u.

Do'stim, sen-chi, sen unga sodiqmisan? Uni qiy nab qo'ymayapsanmi? Tuni bilan sen miriqib u xlab yotganingda u yig'lab tong ottirmayaptimi? Axir yurak ham gul kabi nozik, to'g'rimasmi? Bas, shunday ekan, qo'y, gulga, qolaversa, yurakka ozor aylama. Aksincha, ularni turli yot-unsurlardan himoya et, atrofida o'sib chiqqan chaqir tikanaklarga shafqat qilma, tag-tomiri bilan yulib tashla. Shoyad bilsinlarki, bu gulzor chaqir tikanaklarning maskani emas, bunday go'shada ularga o'rin yo'q, ha, shunday...

Do'stginam, gulni, ha, mana shu oddiygina tabiiy gullarni erkala, ehtiyot, qil, toki ular ham senda nozik yurak borligini sezishsin. Shunday deyman-u, o'ylab qolaman: „Hammada ham nozik yurakmikan?“

„Hamma ham gulni sen kabi sevarmikan, ey yurak,
yurakjon?!”

Boshqalarni bilmadim-u, ammo men yurakka,
gullarga ishonaman. Ular aldamaydilar, xiyonat
qilmaydilar. Ularni asrab-avaylab, bag'rimga bosa-
man, hidlaridan sарxush bo'laman. Eng shodumon
va eng hazin kunlarimda ham xuddi mana shu
yurak, mana shu gullar bilan bo'laman.





KIMNING ISMI CHIROYLI?

Besh yashar Sarvar bobosining tizzasida o'tirib, erkalanar edi. Nogoh u so'rab qoldi:

- Bobojon, mening ismimni kim qo'ygan?
 - Sening ismingni men qo'yganman-da, toychog'im, – bobo nabiraning sochlarni silab qo'ydi.
 - Alibek akamning isminiyam siz qo'yganmisiz?
 - Ha, uning ismini ham men qo'yganman.
 - Ukam Samandarning ismini-chi?
 - Ukangning ismini ham o'zim qo'yganman.
 - Nega hamma ismlarni o'zingiz qo'ygansiz?
 - Ismlarni, odatda, kattalar qo'yadi-da.
 - Nega endi faqat kattalar qo'yadi?
 - Chunki kattalar ma'noli, chiroyli ism tanlashni biladilar. Xo'sh, senga men qo'ygan ism yoqadimi?
 - Hmm, yoqadi, bobojon, judayam yoqadi.
 - Senga yana qanaqa ismlar yoqadi?
 - Menga yana... „Bobo“ degan ism yoqadi!
- Bobo nabirasining gapidan zavqlanib kulib yubordi.



SHIFOKOR

Kuzning so'nggi kunlaridan biri. Havo ancha sobib qolgan. Maktabdan qaytgan G'anitoy tushligini qilib bo'lgach, dars tayyorlashga o'tirgandi. Xona derazasi ortida katta hovli va mevali bog' ko'rini turardi. Daraxtlar barglarini to'ka boshlagan. Barglar shamolda uchib tinmaydi. Shunday bo'lsa ham daraxtlar orasidan qandaydir ovoz keladi: „tuk-tuk-tuk, tuk-tuk-tuk“.

Bu ovoz goh baland, goh past eshitiladi. Ba'zan u g'ashga ham tegadi. Dars qiluvchining xayolini ochiradi. Oxiri dadasidan so'radi:

– Dada, bog'imizda taqillayotgan nima o'zi?

Dadasi boyadan beri o'qib o'tirgan gazetani xontaxta ustiga qo'ydi-da, qayta so'radi.

– Nima deyapsan, bolam?

– Anavi bog'imizda tuk-tuk qilayotgan nima o'zi?

Avval ovoz kelayotgan tomonga – bog'ga qarab biroz quloq solib turgan dadasi miyig'ida kuldi-da, shunday javob berdi:



- Qizilishton-u, bolam, qizilishton!
- Dada, nega u erta-yu kech to‘qillatgani-to‘qillatgan. Jonga tegib ketaman ham demaydi-ya...
- Unday dema, o‘g‘lim, – dedi dadasi. – Aslida u tozalik uchun yaratilgan qush. Bog‘dagi daraxtlarning to‘q-to‘qlab qurt tushgan joylarini qidiradi, zararkunandalarni topib jazolaydi. Bog‘larda qurtlarning ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Dadasining gaplarini tinglab, G‘anitoy qizilishton bog‘imizdagi daraxtlarni davolovchi shifokor ekan-da, deb qo‘ydi.

SICHQONNING DADASI

Shirinbek ko‘chadan chopqillab uyga kirdi:

- Dada, dada! Mushugimizga rahmat deng, uy devorimizdan teshik ochgan sichqonning dadasini tutib olibdi...

– Zo‘r bo‘libdi-da, o‘g‘lim, zo‘r bo‘libdi!

O‘rnimdan turib, hovliga chiqdim. Qarasam, mu-shugimiz qayoqdandir hovlimizga kelib qolgan ka-lamushni sudrab ketardi.



OYMOMO

Yozgi ta'til kunlaridan biri edi. Shahardagi kichik ammamning o'g'li Odiljon mehmonga kelgan. Kechki ovqatni yeb bo'lib, soy bo'yiga qo'yilgan supachada suhbatlashib o'tiribmiz. Oqayotgan soy suvi yuzida ko'kdagi oy aksi jilvalanadi.

- Voy, suvdagi Oymomomi?
- Ha, u bizning Oymomo! – bilag'onlik qildi o'g'lim Nodirjon. – Har kech soyimiz suvida cho'milib oladi. Odiljon ham manzarani kuzatib gap qo'shdi:
- Bizning ham Oymomomiz bor, u ham sizlarni-kiday, hovlimizdagi hovuzda cho'miladi.

JAZO KIMNIKI

G'afurjon mактабидан qaytgach, uyga kirdi-da, sumkasidan kundalikni olib uy burchagiga qo'ydi. Keyin asta bosh egib tashqariga chiqdi. Onasi uning bu ishidan hayron bo'lib so'radi:

- Nega kundaligingni burchakka qo'yding?
- „Ikki“ baho olgani uchun, oyi...



MINNAT

Aziza bilan Karima qalin dugona. Hatto Karimalarning iti Ziyrak ham Azizani yaxshi taniydi. Har gal Aziza darvozadan o'tishi bilan birinchi bo'lib uni Ziyrak qarshilaydi. Biroq... bir kuni Ziyrak to'satdan Azizaning qo'lini tishlab oldi. Keyin Karimaning dadasi Ziyrakni allaqayoqqa tashlab keldi.

Shu-shu ikki dugonaning orasiga sovuqchilik tushdi. Shunga qaramay, oradan bir hafta o'tgach, Aziza shifoxonadan chiqqanini eshitgan Karima ko'rgani chiqdi. Biroq hech kim uni payqamadi.

Bu Karimaga juda alam qildi. Birdan uning ko'zi supa atrofida chaman bo'lib ochilgan gullarga tushdi. Bu gullarning ko'chatini Azizaning opasi Karimalarnikidan olib chiqqan edi.

– Bizni gullarimizni ekvolib, yana menga gapirishmaydi! – dedi yig'lagudek bo'lib Karima.

– Ana shunda uni hamma ko'rди. Aziza lip etib taxta karavotdan sakrab tushdi-yu bir necha gulni



uzib olib Karimaga sovg'a qildi. Shu-shu ikki dugona yana do'stlashib olishdi.

XIYONAT

Aziza juda aqlli qiz. Ammo bir kuni Azizaning birdan dangasaligi tutdi. Ish qilgisi kelmay qoldi. Shu boisdan oyisi uch marta chaqirganda ham bir marta labbay demadi. Indamay qo'g'irchog'ini o'ynatib o'tiraverdi.

- Aziza, qara-chi, ukang yig'lamayaptimi? – chagridi yana oyisi.
- Qaradim, yig'layapti, – dedi Aziza xotirjam.
- Yig'lasa, beshikni tebrat, – jahl bilan gapirdi oyisi.
- Ana, Adibangiz tebratsin, – deya Aziza ikki hatlab darvozadan chiqib ketdi.
- Yana kalaka qiladi-ya, qo'limga tushasan-ku...
- Ushla, quloksizni, – dedi Nargiza opa qizining ro'parasidan chiqqan Bahodirga. Bahodir Azizaga qaradi-yu, o'zini chetga oldi.

Shunda Azizaning jonajon dugonasi Salima ikki sakrab, Azizaga yetib oldi-da, oyisi kelguncha ush-



lab turdi. Oyisi yetib kelib, Nargizani qaysarlik qilgani uchun rosa urishdi. Shunda Nargizaning ko'zi yarq etib ochilganday bo'ldi. Yig'lab turib, oyisidan kechirim so'radi.

Biroq ko'zlarida yosh bilan Salimaga bir qaradi-da, qilgan ishiga pushaymon bo'lib yana yig'lay boshladi. Salima esa o'zining haqligini ham, nohaqligini ham bilolmay hayron qoldi.

BURCHINI ANGLASH

Farhod ukasi Sardor bilan kattagina ariq bo'yida o'ynab yurardi. To'satdan shunday suvga egilib o'sgan qirqbo'g'im ustiga qanotlari judayam nafis, chiroyli, suv ninachisi kelib qo'ndi. Uning zangori qanotlari oftob nurida tovlanib, Sardorni qiziqtirdi. Sardor beixtiyor ninachini tutmoqchi bo'lib qirqbo'g'imga qo'l uzatdi...

Farhod „shalop“ etgan ovozdan cho'chib orqasiga qaradi-yu ukasini suv ichida ko'rdi. Qo'rqib ketgan Sardor baqirib yig'lab yubordi.

– Yig'lama, men hozir. Farhod ham o'zini suvga otdi. Darhol bir qo'li bilan ukasining qo'lidan, ikkinchi qo'li bilan qirg'oqdan egilib tushgan otqulinqing



bandidan tutdi. Keyin bor ovozi bilan dadasini chaqirdi.

Ancha narida ekinlarga qarayotgan Sanjar aka yetib kelib bolalarni qutqarib olganda, Farhod ham, Sardor ham sovuqdanmi, qo'rquvdanmi, qaltirab qolishgandi.

– Tentakvoy, nega darrov meni chaqirmay suvga sakrading, axir suzishni bilmasang, oqib ketsalaring nima bo'lardi! – Farhodni koyidi dadasi.

– Axir men Sardorning akasiman-ku, – Sardorning ko'z-yoshlarini artarkan, g'urur bilan dedi Farhod.

OLMA QOQI

Dilafruzning Karima degan qo'shni dugonasi oilasi bilan vaqtincha boshqa joyga ko'chib ketishdi. Karimalarning katta bog'i egasiz qoldi. Bog'dagi qip-qizil olmalar yer bilan bitta bo'lib to'kilib yotardi.

– Dilafruz, – deb qoldi bir kuni buvisi, – sho'rlik olmalar nobud bo'lib ketyapti. Shuni terib, qoqi solib qo'yinglar, savob bo'ladi. Erta-indin Robiya opoqinglar kelib qolishsa xursand bo'lishardi.

Bu gap Dilafruzga ham maq'ul bo'ldi. U dugonasi Shahnoza bilan birga to'rt chelak olmani kesib, bog'ning etagiga bo'yra yozib, ustiga qoqini yoyishdi.



Oradan bir hafta o'tdi. Dilafruz qoqini esidan chiqarib yuborgan edi. Karimalar oilasi o'z uylariga qaytishdi. Dilafruzning buvisi aytgandek, Robiya opoqi olmalarning nobud bo'lmaganini, olma qoqlarni ko'rib juda xursand bo'ldilar. Olma qoqlarni qo'shnilar birga baham ko'rishdi. Shuni aytadilar-da, „Yon qo'shni – jon qo'shni“ deb.

SEHRLI TAYOQCHA

- Buvijon, men sehrli tayoqcha bo'lib qolgim kelyapti, – dedi Firdavs.
- Tushunmadim, balki sehrli tayoqchali bo'lishni xohlayotgandirsan?
- Yo'q. Sizning sehrli tayoqchangiz bo'lishni istayman.
- Nega endi aynan mening, bo'talog'im?
- Axir o'zingiz sehrli tayoqcha yaxshi odamning qo'liga tushsa faqat yaxshilikka xizmat qiladi, – degansiz-ku.



URUSH URUSH-DA

– Buvijon, sizning dadangiz bo‘lmanmi? – so‘radi Firdavs bolalagini eslab ko‘zyosh qilgan buvisidan.

- Bo‘lgan. Uni katta urush olib qo‘ygan.
- Katta urush dadalarni olib qo‘yadimi?
- Urushga farqi yo‘q. Domida qolgan hamma-hammaning hayotini olib qo‘yaveradi. Urushning kattasi ham, kichigi ham yomon. U odamzotning dushmani.

Shu choq tashqarida big‘illab urishayotgan mushuklarning ovozi buvisining gapini bo‘ldi. Ular hovliga chiqishmadi. Bo‘yni qonagan Mosh gandirak-lab ko‘chaga chiqib ketdi. Och qolgan mushukchalar ayanchli miyovlar, onasini izlardi.

– Buvijon, urush mushuklarga ham dushman ekan. Men urushni yomon ko‘raman, – yig‘lab yubordi Firdavs.

TISH OG‘RIYDI

Zarifa 8 yoshga to‘ldi. Maktabga boradi. Maktabdan buvasiga bir olam yangilik olib keladi. Bugun ertalab buvasi uni maktabga kuzatib qo‘yar ekan,



qo'liga shokolad tutqazdi. Zarifa buvasining oppoq, yumshoq yuzidan cho'lpillatib o'pdi-yu, yugurgilab mактабига ketdi.

Darslar tugagach, Zarifa uyga qaytdi. Lekin u negadir xomush edi.

- Xo'sh, Zarifa qizim, mактабда qандай baholar olding? – uni savolga tutdi buvasi.
- Hech qanaqa, – qovog'ini ochmadi u.
- Shokoladdan o'rtoqlaringga ham berdingmi?
- Bermadim.
- Nega? Sen qizg'anчиq emasding-ku? – hayron bo'ldi buvasi.
- Yana bolaga shokolad berdingizmi? Axir hadeb shokolad yeyaversa tishi qurtlab ketadi-ku, – gapga aralashdi buvisi.
- Unda, – birdan kulib yubordi Zarifa, – unda endi matematika ustozimning tishini qurt yeydi.



RASM

- Buva, menga devning rasmini chizib bering, – dedi Firdavs yozuv-chizuv qilib o‘tirgan buvasining yoniga kelib.
- Devni, qanaqa devni?
- Katta, ko‘zi yonadigan devni.
- Sen devni yaxshi ko‘rasanmi?
- Yomon ko‘raman, chizib bersangiz, uni qafasga solib qo‘yaman.
- Mittivoy, men ham bilmagan dev haqida qayordan eshita qolding?
- Dadam menga dev haqida ertak aytib berdilar. Devlar juda yomon ekan, u odamlarni qiynarkan. Tog‘larni ham yiqitib yuborarkan.
- Bolam, tog‘ni yiqitadigan, odamlarni qiynaydigan devlarning bizga keragi yo‘q. Yaxshisi, men senga yozgi o‘zimizning bog‘imizni chizib beraman.
- Lekin hozir bog‘imizda qordan boshqa narsa yo‘q-ku.
- Men senga yozgi bog‘imizni chizib beraman.





– Anorimizni, gullarimizning ham rasmini chizasizmi?

– Ana, topding, ularni birgalashib chizamiz.

Firdavs, buvasi chizgan gullarga uzoq qarab qoldi.

– Buva, endi gullarimizga qo'ngan kapalaklarimizni ham chizing. Qizil kapalaklarni, – shoshiltirdi Firdavs.

– Yo'q, kapalaklarning sarig'ini chizamiz. Qizil rangni esa anor bilan gilosga ishlatalamiz.

– Anorimizning gulini ham chizaylik.

Firdavsning rasmdan rasmga zavqi oshib borar, har bir rasmni qo'li bilan silab ko'rardi.

– Dada, bugun Firdavs biram tinch uxladiki, har zamonda jilmayib ham qo'yadi. Ilgari cho'chib, yig'lab chiqardi, – dedi Farhod aka nonushta paytida.

– Ha, qayoqdagi dev, yalmog'izlar haqida ertak aytib bergeningdan keyin cho'chiydi-da. Bolaga yorug', yaxshi, chiroyli narsalar haqida gapirgin, bolam... Shunda u ezgulikni tanib, dilda yaxshilik bilan ulg'ayadi, – dedi Firdavsning buvasi.



DARS JADVALI

Dushanba kuni birinchi dars yo'q edi. Har kuni erta turadigan Mardon bugun nimagadir turgisi kelmay, yalqovligi tutib yotaverdi. Oyisi Fotima opa o'g'lini uyg'otmoqchi bo'ldi.

- Tura qol, Mardon, darsingga kech qolasan.
 - Nuqlul tushimning zo'r joyida uyg'otasiz, oyi. Bugun birinchi darsimiz yo'q, yana ozgina uxlay, – ko'rpaning tagidan norozi, eringan ovoz eshitildi.
 - Nimaga bo'lmas ekan?! Hozirgina o'qituvching telefon qildi-ku. O'g'lingizga ayting, jadval o'zgaribdi, birinchi dars matematika qo'yiladigan bo'ldi, deb.
 - Nima! – Mardon o'rnidan sakrab turib ketdi, – rostdanmi? Nimaga shuni ertaroq aytmaditingiz, oyi!
- U shunday deya yuvinish xonasiga kirib apil-tapil yuz qo'llarini yuvdi-da, shoshilib kiyina boshladи. Onasi chekkada jilmaygancha o'g'lining harakatlarini kuzatib turardi. Mardon kitob-daftarinи sumkasiga joylab, eshik sari yaqinlashganda oyisi uni to'xtatdi.
- Mardonjon, nonushta qilmaysanmi?

– Vaqtim yo‘q, darsimga kech qolaman.

Onasi o‘g‘lining yoniga cho‘kkalab, boshini silar-kan, bilimdon bolajonimdan o‘zim o‘rgilay, deya erkaladi va tayyorlab qo‘ygan nonushtasini qo‘liga tutqazib, orqasidan mehr bilan kuzatib qoldi.





RANG ALMASHGAN MEVALAR

Bir kuni shaftolixon ko'k, olma polvon jigarrang, gilos havorangga kiribdi. Voy, qachon, qayerda, deysizmi? Unda eshiting. Sizga so'zlab bermoqchi bo'lgan hikoyam rang almashgan mevalar haqida.

Darsda berilgan navbatdagi topshiriqni bajarish uchun rasm daftarini ochgan Rahimjon hayratda qoldi. Kecha mevalarni naturmort shaklida qora qalam bilan chizib, rang berishga ulgurmagandi. Rahimjon buni ko'rdi-yu, ukasi Ilhomjon nimaga kecha tush vaqtি rangli qalamlarni qidirib qolganini tushungandek bo'ldi.

Hali kichkinada. U ham akasidek rasm chizgisi kelgan... Topshiriqni qayta bajara turib, Ilhomjonga ranglarni o'rgatgisi keldi.

Uyga kelib, ukasini yoniga chaqirdi. Qo'liga rangli qalamlarni oldi. Sariq qalamni ko'rsatib, uning rangini so'radi. Ilhomjon o'ylanib:

- Qizil, – deb javob berdi. Rahimjon ko'k qalamni olib so'radi.
- Bu ham qizil, – dedi ukasi.



- Olmani yaxshi ko'rasanmi? – so'radi akasi.
 - Ha, yaxshi ko'raman, – tasdiq ishorasini qildi Ilhomjon.
 - Unda eslab qol, mana bu olmaning rangi qizil. Olcha, qulupnay, pomidor ham qizil rangda. Tushundingmi?
 - Tushundim.
 - Bodringniki yashil, qovunnniki sariq, kishmish uzumniki qora. Rahimjon ranglarni shunday tushuntirdiki, Ilhomjon o'zini bir bog'da, bir polizda yurgandek tasavvur qildi. Rahimjon sumkasidan kattakon qizil olma chiqarib:
 - Rasm daftarmagi mevalarni kim bo'yadi, bilmaysanmi? – dedi Ilhomjonga qarab.
 - Me-e-en, yomon chiqibdimi? – dedi.
 - Mana qara, o'z ishingga o'zing baho ber, – dedi akasi.
- Ilhomjon mevalarga qarab kuldi.
- Shaftoli ko'k rangda bo'lmaydi-ku – dedi barmog'ini tishlab. – Rasm daftaringizni so'ramay olganim uchun xafa bo'lmaidingizmi? Men shunchaki, sizga yordam bermoqchi edim. Endi sizni ham, mevalarni ham xafa qilmayman, chin so'zim, – dedi Ilhomjon.

QIZG'ANCHIQ

Qobiljonni taniysizmi? U qo'shni mahallada yashaydi. O'yinchoq mashinasini birovga bermaydi, koptok o'ynagisi keladi, ammo yorilib qolsa-chi, deb ko'zi qiymaydi. Yangi shippagini ayab, hovlida oyoqyalang yuradi. Buvisi erkalatib, shirinlik bersa, yemay, ikki-uch kunlab asrab o'tiradi. Singlisiga ilinay demaydi.

Bir kuni Qobiljonning uyiga mehmon keldi. Qobiljon hovliga yugurib chiqdi. Mehmonlardan biri unga shokolad berdi. Sevinchi ichiga sig'may ketgan Qobiljon atrofga bir-bir qarab qo'ydi. Singlisi ham, ukasi ham yo'q, demak, hech kim ko'rmedi. U sekingina uyga kirib, shirinlikni yashirishga tushdi. Dadasining kitoblari taxlangan javonga qo'ydi.

– Yo'q, yo'q, agar shokoladni bu yerga qo'ysam, dadam topib oladi, yaxshisi uni buvimming ko'rpachalari orasiga qo'yaman, hech kim topa olmaydi, – dedi. U tekis qilib taxlangan ko'rpachaning orasiga shokoladni qo'ydi-yu, – Erib ketsa-chi, – deb o'ylab qoldi. Erib ketsa mayli-ya, ammo buvim mehmonlarga ko'rpacha to'shayotganida hammaning oldida topib olsa yaxshi bo'lmaydi. Yo'q, yo'q, u shunday dedi-



yu, mehmonlarga shokoladni bo‘lishayotganini ko‘z oldiga keltirdi. – O‘zim yeymen, hech kimga bermay yeymen...

Bechora Qobiljon kuni bilan shirinlikni u yoqdanbu yoqqa berkitdi. Oxiri yerto‘ladagi, qopqog‘i uncha-bunchaga ochilmaydigan tovaning ichiga berkitib qo‘ydi.

– Oyim bu tovani ishlatmaydi. Mayli, shu yerda turib tursin, ertaga hamma ishga ketganida bir o‘zim yeymen.

Qobiljon darsda ham shokolad haqida ko‘p o‘yladi. Chiqishiga qo‘ng‘iroq chalindi-yu, yeldek uchib, uyga yugurdi. Aksiga yo‘lidan buvisi – Halima xola chiqib qoldi.

– Qobiljon bolam, mana bu issiq nonni Gulnora xolanikiga olib borgin! – dedi.

Buvisining gapini ikki qilish yaxshimas, Qobiljon nonni xolasinikiga yetkazdi.

Uyga qayta turib, uzoqdan o‘rtog‘i Javlonga ko‘zi tushdi.

Qobiljon idish-tovoqlarni bir-biriga urib, shokoladni qidira ketdi.

– Onang o‘rgilsin, nimani qidiryapsan? – so‘radi onasi.



- Oyi, ana u katta qopqoqli tova qani?
- Tovani nima qilasan?
- Kerak, oyi, qani?
- Hozirgina Javlon o'rtog'ing olib ketdi-ya, oyisi quymoq pishirar ekan.

Qobiljonning ustidan kimdir bir chelak muzdek suv quygandek bo'ldi. Ko'zlarida yosh aylanib:

- Nimaga berdingiz, – dedi.

Qobiljon ko'chaga chiqdi. Javltonni uchratdi, o'rtog'i allaqachon shokoladni pok-pokiza yeb bo'lgandi. U qo'llarini dastro'molga artib, Qobiljonga yaqin kela boshladi.

- Qizg'anчиq, hammasini o'zi yebdi. Shokoladni singlim topib olganidami, albatta men bilan bo'lishgan bo'lardi, – dedi tamshanib.





SHOKIR HARBIY XIZMATGA BORADI

Shokirning akasi Adham harbiy xizmatga boradigan bo'ldi. Buni eshitgan Shokir hayron. Nega akasining bir o'zi ketyapti?

Kichkina Shokir akasiga yalina boshladi:

- Akajon, meniyam birga olib keting. Yaxshi bola bo'laman. Hamma aytganingizni qilaman. Maylimi?
- Ukajon, shoshmay tur. Avval senga mos keladigan harbiycha kiyim buyuraman. Tayyor bo'l-sin, kiyib olasan. Keyin o'zim bilan olib ketaman. Ungacha aqli bola bo'lib, oyimning aytganlarini qilib yur. Kelishdikmi?
- Bo'pti, – dedi ukasi xursand bo'lib.
- Shokir akasini kuzatar ekan „Tezroq keling, sizni kutaman“, deb qoldi. Endi u akasining harbiy kiyim keltirishini intiqib kuta boshladi.


Bugun esa Adham akasidan maktub keldi. Unda askar ukasining yangi chizgan rasmlarini yuborishini so'ragandi. Shokir buni eshitib, quvonib ketdi. Stol yoniga kelib, ajoyib narsa o'yladi: „Topdim. Hovlimizni



va bog'imizni chizaman. Arig'imizni, ochilib turgan binafshalarni, gullayotgan o'rigimizni chizaman. Yanchi, quyoshning qanday nur sochayotganini, tomimizda ochilib yotgan lolaqizg'aldoq va chuchmomalarni chizaman“.

Shokir kechga borib rasmlarini bitirdi. Qog'oz oldida, o'tirib yoza boshladi: „Akajon, hali qaldirg'ochlar bog'imizda ko'rinnadi. Qachon uchib kelishsa, ularni ham, albatta, chizib yuboraman“, deb yozib qo'ydi.

Nega shunday qarorga keldi, buni faqat o'zi bilardi. Axir u xatni harbiy xizmatdagi akasiga yozdi-da. Shunday ekan, faqat to'g'risini yozish kerak edi-da...





SO'RALMAY QOLGAN GAP

Gulshodaning oyisi noutbukni yoqdi. Xorijda mehnat safarida yurgan turmush o'rtog'i bilan gaplashib bo'lgach, bolalarni chaqirib:

Dadangizga aytadigan gapingiz bo'lsa, keling lar, – dedi.

– Bor, bor! – Hovliqib yugurib keldi Gulshoda.

Murvat bosilgach bolalar gapira ketdi:

– Dadajon, menga chiroyli ko'ylak olib keling.

Oyisi unga ma'noli qarab qo'yganini boshqacha tushundi-yu yana gapira ketdi:

– Yana tufli, sumka ham!

O'ziga gal kelganini bilgach, Akbarshox ham bidirlab ketdi:

– Menga esa oyoq kiyim, futbolka, yana eng yaxshi koptok ham olib keling, dadajon!

Onasi Akbarshoxga ham qoshini chimirib qaradi.

– Nima esingizdan chiqdi?!

– Ha, aytganday, shirinliklar! Konfetlar, shokoladlar.



- O'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar-chi, – shoshilib qo'shib qo'ydi Gulshoda.
- Mashinalar qolib ketdi-yu, – dedi Akbarshox.
Oyisi internetning ovoz tugmasini bosib qo'yishga majbur bo'ldi.
- Eng kerakli narsani so'ramadingiz, – dedi u no-rozi ohangda. Bolalar hayron qolishdi. Ular dadasingning hol-ahvoli, sog'lig'i, ishlari haqida so'rashni unutishgandi.





SO'NMAS QUYOSH

Gulnora 5-sinfda o'qiydi. Uning qiziq odati bor. Har kuni mактабдан kelgach, darslari, sinfdoshlari haqida tez-tez onasiga gapirib bermasa bo'lmaydi. Qizining odatini bilgan onasi erinmasdan hammasini eshitadi va o'z fikrini bildiradi. Bugun ham shunday bo'ldi. Gulnora ichkari uyda dazmol qilayotgan onasining yoniga borib, Adabiyot darsi qiziq o'tganini gapirib ketdi:

– Bilasizmi, oyijon, shu kungacha xalq maqollari deb o'ylaganimiz, aslida Alisher Navoiy bobomizning hikmatlari ekan. Masalan, sizga mashhurlarini aytaman: „Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'-ramagan o'ziga zolim“, „Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur“, „Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt“...

– Ha, qizim, Navoiy bobomiz xalq hayotini yaxshi bilgan. Zamonasining barcha ilmlarini yaxshi egal-lagan. Shuning uchun ko'rgan-kechirganlardan kelib chiqib, teran mazmunli hikmatlar yozgan, ularning qaysi biri xalqники-yu, qaysi biri Navoiyniki ekanligini ajratib bo'lmaydi.



- Oyijon, Siz bularni qayerdan bilasiz?
- Ko'p kitob o'qisang sen ham bilib olasan. Qadimda – hali kitob bosib chiqarish yo'lga qo'yilmagan paytlarda odamlar yaxshi g'azallarni, yaxshi asarlarni bir-birlaridan ko'chirib yozib, yod olganlar. Hozir esa ba'zi dangasa bolalar tayyor darslikni ham o'qimaydilar, qizim. Men Navoiy ijodini so'nmas quyoshga o'xshataman. Necha asr o'tsa ham uning asarlari xuddi quyoshdek porlab, o'zidan nur taratib turibdi. Qizim, hozir sen boshqa darslaringni tayyorlab tur. Birozdan so'ng men senga ulug' shoir haqida bilganlarimni gapirib beraman, – dedi Gulnoraning onasi.

NAVRO'Z TUHFASI

Bolaligimda Navro'z taomlariga ko'katlar terish uchun uyimizdan sal naridagi dalalarga chiqardik. Onam bizga:

- Mana bu jag'-jag', mana bunisi ismaloq, bu esa otquloq, – deb ularni ko'rsatib, bir-biridan farqlashni o'rgatardilar. Ariq bo'yidagi yalpizlarni ko'rsatib:
- Mana bunisi yalpiz, hushbo'yligini qarang. Yalpiz qadimdan juda shifobaxsh giyoh hisoblanadi. Xalq tabobatida undan keng foydalanishadi. Bu giyohlarni





yaxshilab eslab qolinglar. Ularni uzayotganda ehtiyoj bo'linglar, yer yumshoq, xiyol qattiqroq tortsangiz ildizini sug'urib olasiz, keyin ular yildan yilga kamayib ketadi. Kelgisida bu ko'katlarni yo'qotib qo'ymaslik uchun asrab-avaylash zarur, – deb ta'kidlardilar.

Mana, shundan beri oradan yillar o'tdi. Onam xavfsiragan hodisa – ariq bo'yidagi yalpizlar kamayib borib, oxiri ulardan asar ham qolmadi. Befarq, tushunmagan odamlar ularni ildizi bilan yulib olaverib yo'qotib yubordilar, bugunimizni o'ylamadilar.

Lekin bir-ikki yil avval hovlimizga tasodifan yalpizning urug'i tushib qolgan ekan, unib chiqdi. Farzandlarimga uni ehtiyojlashni tayinladim. U baland bo'lib o'sib urug'ladi. Kelasi yil o'sha yerda anchagina yalpiz nish urdi. Bargidan bir dona uzdim. Xush bo'yi atrofni tutdi. To'yib-to'yib hidladim... Shunday ajoyib ko'kat shahar sharoitida barg yozib o'sayotganidan quvondim. Endi ular har bahorda bir to'p bo'lib gurkirab turadi. Yalpizlarga qarab sevinaman, ildiziga shikast yetkazmay, barmoqlarim bilan kertib-kertib uzaman. Turli masalliqlarga qo'shib bahoriy taomlar tayyorlayotganimda onamning aytgan gaplari yodimga tushadi va har ko'klamda tabiatning betakror ne'matlariga tasanno aytaman.



TANBEH

Behzod bilan Sherzod aka-ukalar. Behzod 8, Sherzod 7 yoshda. Ular birga maktabga borib, birga dars tayyorlaydilar. Ota-onasi buyurgan uy yumushlarini birgalikda bajaradilar. Kunlarning birida Sherzod nogoh akasining qalamini sindirib qo'ydi. Bundan jahli chiqqan Behzod ukasiga:

– Ahmoq, kallavaram, nima qilib qo'yding? – deb qichqirdi.

Bu shovqinni eshitgan onasi Behzodga qarab:

– Og'zing iflos bo'ldi, bor toza suvga chayib kel, – dedi qat'iy.

– Nega endi iflos bo'lar ekan? – so'radi u.

– Chunki sen bemaza so'zlarni ishlatding. Bunday so'zlar odamning og'zini kir qilib qo'yadi.

– Qarang, eng yaxshi qalamimni sindirib qo'ydi, – qizishib ketdi Behzod.

– Sen aytmoqchi bo'lgan gaplarni xunuk so'zlar ishlatmasdan ham aytса bo'ladi. Bilib qo'y, ona tilimiz juda chiroyli, nafis so'zlarga boy. Uni qancha yaxshi so'zlar bilan bezatib borsang, shuncha go'zallahadi. Qancha yomon so'zlar ishlatsang, shuncha so'lib qoladi. Chunki tilimiz gulga o'xshaydi, – tushuntirdi onasi.



TOSHBAQA NEGA GAPIRMAYDI?

Sardor 9 yoshda, 3-sinfda o'qiydi. U jonivorlarni yaxshi ko'radi. Keling, bu haqda uning o'zi aytib bersin:

– O'rtog'im Ibrohimning Chaqmoq degan iti bor. Ibrohim o'ynagani ko'chaga chiqsa, doim ortidan ergashib yuradi. Juda aqlli, bekorga vovullab, atrof-dagilarni bezor qilmaydi.

Azizning esa mushugi bor. Yunglari sarg'imtir, momiqqina. Aziz gapirganda uni tushunayotganday dumini likillatib turadi. Goh-gohida „miyov“ deb qo'yadi. Sanjar o'rtog'im „sa'va“ degan sayroqi qush boqadi. O'rtoqlarim uyda hech zerikishmaydi. Chunki ba'zida bu jonivorlar bilan gaplashib turadilar-da...


Mening esa toshbaqam bor. O'zim qo'l bola quti yasab, uni solib qo'yanman. Tagi yumshoq bo'lishi uchun o'tlar to'shaganman. Qog'oz qutida zerkmasin, deb ba'zida hovliga qo'yib yuboraman. Uzoqqa o'rmalab ketib qolsa, yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, qarab turaman. Oyimning so'zlariga kirib tog'oraga suv to'ldiraman-da, toshbaqamni unga qo'yib yuboraman. Suvni juda yaxshi ko'radi. Buni men suzishiga qarab bilib oldim. Ammo u sira gapirmay-



di, ovozi ham chiqmaydi. Oldiga yangi uzilgan o't tashlasam, yemaydi. Lekin nariroq ketib, uzoqdan kuzatib tursam, o'tni cho'qilay boshlaydi. O'rtoqlarimning kuchugi, mushugi, qushi gapiradi. Oyijonimdan sababini so'radim:

– Toshbaqa ham o'z tilida gapiradi, faqat sen tushunmaysan, – dedi. – Ko'zlari bilan gapiradi. Mana, baliqlarning ham ovozi chiqmaydi. Lekin ular gohida og'izlarini ochib nimadir deyayotgandek bo'lishadi.

Oyimning gapidan keyin toshbaqamning ko'zlariga sinchiklab qaraydigan bo'ldim. Rostdan ham u men ga nimadir deyayotgandek edi, biroq tushunmadim. Mayli, gapirmsasa ham, tushunmasam ham, men uni juda yaxshi ko'raman!





KAPALAK

Azizaxon qachon buvisinikiga borsa buvisi hovlida yurgan bo'ladi. Kichkina teshasida gul oralarini yumshatib, suv quyadi. Abduazim: „Buvijon, men hali shlangni kranga ulab qo'yaman, to'yib suv ichadi gullar“, desa ham buvisi unamaydi.

– Bolam, – deydi buvisi, – bu menga ermak, ozgina harakat qilsam qonim yuradi. Bilmasam, qon tomirda o'zi aylanib yuradi-ku?!

Azizaxon dadasi bilan buvisini sog'inib keldi. Eshikdan kirishi bilan gullarni ko'rib, ko'zlari yashnab ketdi. Kecha yomg'ir yog'ganiga qaramay, buvisi hovlidagi rayhonlarga suv quyardi.

Azizaxon toychoqday sakrab borib, buvisini quchoqlab oldi.

– Oppoq qizim kepqopti-yu, – dedi buvisi issiq bag'ridan qo'yib yubormay.

Dadasi esa har safargiday ular bilan ko'rishib, ishiga shoshildi. Buvisi Azizaxonni qo'lidan tutib ayvonga boshladi.





– Ona qizim, yaxshi kepsan-da. Ko‘z oldimdan o‘tkazib o‘tirgandim. Hozir hammamiz – akalaring bilan choy ichamiz. Senga qaymoq olib qo‘yganman, yaxshi ko‘rasan-ku!

Ular Abduazim, Abduhamid bilan birga nonushta qilishdi. Duo o‘qishdi. Hamma o‘z yumushiga turdi.

Azizaxon gullarni tomosha qildi. Bir payt qayoq-dandir qanotlari pushti kapalak uchib kelib, xayrigulga qo‘ndi. Azizaxon avval tomosha qilib, keyin uni tutmoqchi bo‘ldi. Oyog‘i ostiga qaramadi, natijada tuproqqa botdi. Rayhon ezilib sindi. Azizaxon qo‘lini uzatgan edi, kapalak uchib tugmachagulga qo‘ndi.

Shu payt oshxonadan buvisi chiqib qoldi:

– Hoy-hoy, ona qizim, gullarni payxon qilmagin! – dedi.

Azizaxon oyog‘ining ostiga qaradi. Rayhon, tugmachagul, xayrigullar sinib yotardi.

Azizaxon kapalak tutmoqchiliginи aytib, yig‘lab yubordi.



SEPSANG, SEPAVER

Xolasi jiyani Nozimaxonni bog' sayliga olib bорди. Qizaloq bog'dagi tengdoshlari bilan bir zumda tanishib oldi. Biroq bu uzoqqa cho'zilmadi.

– Suv sepsang, sepaver, kovushim ukamniki, – dedi Nozimaxon Jahongir tomonga oyoqlarini cho'zib.

– Unda yubkangga sepaman, – bo'sh kelmadi Jahongir va ariqchadan qo'lidagi idishga suv olib yana sepa boshladi.

– Sepaver, u ham opamniki, – dedi kulib Nozima.

– Unda-a-a, – o'ylanib qoldi Jahongir va Nozimaning chiroyli koftasiga suv sepa boshladi.

– Bemalol sepaver, koftam ham o'zimniki emas, singlimniki, – deya g'olibona javob berdi Nozima...

Jahongir nima qilishini bilmay, qo'lidagi chelak-chasini tashlab uyiga kirib ketdi...



BO'LAKLANGAN OLMA

Tashqarida kuz shabadasi esar, maydalab yomg'ir yog'ardi. Bugun yakshanba. Birinchi sinfda o'qiydigan Murod ukasi Dilshodga shashka o'ynashni o'rgatardi. Dilshod 5 yosh bo'lsa-da, shashka sirini anchamuncha o'rganib oldi:

– Dilshod, to'g'ri yur. Manavi donani olmaysanmi?

Muyassar opa kiyinib chiqqanida Murod shashka o'ynashdan to'xtab:

– Oyi, biror yoqqa ketyapsizmi? – deb so'radi.

– Ha, o'g'lim, bugun mehmon keladi. Bozorga boraman. Ko'chaga chiqmanglar-a. Shamollab qolasizlar. Sizlarga bozordan nima olib kelay?

Dilshod o'ylab o'tirmay:

– O'yinchoq, o'yinchoq... – dedi.

Murod kecha o'rtog'i Rahimnikiga chiqqanida katta qizil olmaga ko'zi tushgandi. Shu topda uni esladi-yu:

– Menga olma olib keling, oyi, – dedi.



Yomg'ir ham tindi. Bulutdan keyingi quyosh uy xonalarini yorug' nurga to'ldirdi. Hovli darvozasi ochilib-yopilgani eshitildi. Dilshod yugurib ayvonga chiqdi:

– Ur-re, oyim keldilar!

Murod ham shoshib tashqariga qaradi.

Muyassar opa ikkita bozor sumka bilan ayvonga kirdi. Yomg'irpo'shini yechib ulgurmay, Dilshod uni quchoqlab oldi. Onasidan mototsikl o'yinchoq olgan Dilshod shosha-pisha o'ynashga kirishib ketdi.

Murod esa sumkalarni olib kirishga urindi.

– Shoshma, bolam, og'ir... O'zim ko'taraman, – dedi oyisi nafas rostlab. So'ng sumkadan bir dona qizg'ish olma olib, Murodga uzatdi.

– Faqat shumi? – dedi Murod.

– Senga bergen va'dam esdan chiqibdi. Avtobusda bir kishining olma olib kelayotganini ko'rib: „Voy, men, men ham olishim kerak edi-ku“, deb yuboribman. Haligi kishi „Mana, oling“, deb shu olmani berdi.

– Mayli, – deya Murod xotirjam olmani xontaxtaga qo'ydi. So'ng pichoqni olib, archishga kirishdi. Bu holni kuzatayotgan ona:

– Menga ber. Po'chog'ini yupqa archish kerak, – dedi.



Muyassar opadan archilgan olmani olgan Murod uni uch bo'lakka bo'ldi. Birini o'ziga oldi, qolgan ikki bo'lagini ukasi va onasiga ilindi.

– Nega o'zing yemading?! – dedi Muyassar opa o'g'lining mehribonligidan hayratga tushganini yashirmay. – Seni sinay degandim. Xaltada olmalar ko'p. Bozordan olganman. Bu fazilating yaxshi, o'g'-lim. Atrofdagilarga doimo g'amxo'r bo'lsang, ular ham senga mehribon bo'ladi. Shuni esdan chiqarma.

Murod ishtaha bilan olma yerkan:

– Rahmat, oyi,— dedi.

O'g'lining odobidan to'lqinlangan ona olmalarni dasturxonga qo'ydi.





ZAYNABNING MUSHUGI NEGA ARAZLADI?

Zaynab bir kuni qishda ko'chaga chiqsa, eshigi tagida mushuk bolasi turibdi. Zaynabni ko'rishi bilan „Menga rahming kelsin, men sovuqda qoldim, uyinga kirit, isinay!“ degandek cho'zib „miyoov“ debdi. Zaynab mundoq qarasa, chiroyligina mushukcha, „Ortiqcha bo'lsa, birov tashlab ketgandir“, dedi-da, uni ko'tarib uyiga olib kirdi...

Zaynab uni yaxshi parvarish qildi, mushuk ham unga tezda o'rganib ketdi... Oila ovqatlanishga o'tirsa, dasturxon yoniga kelib suqatoylik qilavemas, „aqlii“ edi... Shu taxlitda uch yil o'tdi. Bu orada Zaynab mакtabga boradigan, ro'зg'orda onasiga yordam beradigan bo'ldi.

Bir kuni opasi maktabga ota-onalar majlisiga keta turib:

- Qizim, stoldagi idish-tovoqlarni yig'ishtirib qo'ygin, – dedi.
- Xo'п, oyijon! – dedi Zaynab...



Zaynab sevinib idish-tovoqlarni yig'ishtirdi, yuvdi, artdi, lekin joy-joyiga qo'yayotganida qo'lidan bir kosa sirg'anib tushib ketdi va chil-chil sindi. Qanday qilib tushirib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Endi onasiga nima deydi? U o'ylanib qoldi... „Mushuk tushirib yubordi“, deyman.

Saldan keyin onasi keldi. Zaynab kosaning singaniga xuddi shunday vaj ko'rsatdi. Ona biroz xafa bo'lib, mushukni qarg'adi. Hatto musht ko'rsatib urmoqchi bo'ldi. Lekin ertasiga qiziq hodisa ro'y berdi. Odatda, Zaynab nonushta qilganda mushukka ham ovqat berardi, bugun ham shunday qildi, ammo mushuk qayrilib ham qaramadi... Maktabdan kelib, ovqat bergen edi, u yana yemadi. Ertasiga yana shunday bo'ldi, hatto Zaynabning yoniga ham kelmaydigan bo'lib qoldi.

– Mushuging sendan arazladi. Nimadan xafa qilgan eding uni, Zaynab? – deb so'radi onasi.

– Hech narsadan! – dedi-yu, shu zamon mushugiga tuhmat qilib, unga ozor berib qo'yganini sezdi. Bu ishidan xafa bo'lib, bir-ikki kun qiynalib yurdi. Oxiri chidolmadi, hamma gapni onasiga ochib soldi. U rostini gapirib bergani uchun onasi urishmadi,



balki yolg'on gapisirish odobli bolaning ishi emasligini aytdi. Bu gaplarni eshitib turgan mushuk asta kelib, Zaynabning tizzasiga boshini qo'ydi. Kechqurun Zaynab unga ovqat bergen edi, munchoq ko'zlarini mo'l tiratib bemalol ovqatni yedi. U ham Zaynabni kechirgan edi.





OLTIN KALIT

Bugun Yulduz uchun katta bayram: „Alifbe“ bayrami. Endi u ertadan boshlab kitob o'qiy oladiganlar safiga qo'shiladi. Uning quvonchini ko'rib, o'qituvchim Sharofat opani esladim.

Bir kuni Sharofat opa meni darsdan keyin chiqirtirib qoldi. Bordim. O'qishimni, uydagilarning sog'lagini so'radi, so'ng:

- Ertaga yakshanbada vaqting bormi? – dedi.
- Vaqtim bor, opa, – dedim.
- Agar uydagilaring javob berishsa, menikida ozgina hasharli ish bor edi, kela olasanmi? – deb so'radi.
- Kelaman, opa, – dedim.
- Bo'lmasa, bir-ikki o'rtog'ingni ham ola kel, – dedi.

Rashid, Sa'dullaga aytdim. Birga boradigan bo'l-dik. Ertalab opamizning uyiga yetib borsak, o'qituvchimiz javondagi kitoblarni tartibga solayotgan ekan. Biz ham qarashib yubordik.



Javonning eng yuqori tokchasidan bir tugun chiqdi. Rustam uni birinchi bo'lib qo'liga oldi-yu, changini qoqar-qoqmas qiziqchiligi tutib ketib:

– Opa, oltin topdik! – deb haligi tugunni baland ko'tardi.

Tugunni Sharofat opaning oldiga borib ochdik.

Ichidan bir dasta sarg'ayib ketgan kitob chiqdi. Kitoblarni ko'rishi bilan Sharofat opa avaylab qo'liga oldi:

– Voy, mening oltin kalitim! – deb bir kitobni ko'ksiga bosdi. Sharofat opa Rustam topgan kitob-larning changini artib, javondagi eng ko'rinarli joyga qo'ydi...

Opamizning nega „Alifbe“ kitobini „oltin kalit“ deganlariga keyin tushundim. Bu kitob jami bilimlarga yo'l ochib berarkan. Demak, Yulduz ham hozir qo'lida „oltin kalit“ni ushlab turibdi. Bu kitob unga ilmlar xazinasini ochib beradi.

CHIROYLI SALOM

Nigina bugun negadir kechroq uyg'ondi.

– Iya, – dedi Xurshid buva dasturxon atrofida-gilarga qarab. – Tinchlikmi?

Malika xola mehr bilan qizini erkaladi.

– Buvasi, Niginangiz allamahalgacha o'ynab o'tir-di. Charchagan-da.

– Erta turishning xosiyati katta, – deya gap boshladi buva.

– Ko'p uxlagan bola lanj bo'lib uyg'onadi. Barvaqtursa, katta-kichikning qanday o'tirishini, dasturxonni qanday tuzashni, choy quyib uzatishni o'rganadi. Qiz bola bularga kichikligidan e'tibor berib borgani ma'qul.

Xurshid buva piyoladagi choyini xo'plab, o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, qo'shni xonadan Nigina chiqdi. Sochlari xurpaygan, ko'zlarini uqalayotgan qizcha garangsib buvasiga qaradi-yu, yuvingani kirib ketdi. Bu orada Xurshid buva dasturxonga duo o'qib o'rnidan turdi. Yo'lakka o'tdi. Kovushini to'g'rilib, endi o'ng poyini kiyayotgandi, yuz-qo'lini yuvayotgan Nigina buvasini to'xtatdi.



ZINA

Keling tanishaylik. Ismim Habibxon. Kim ko'rsa „Katta bo'libsiz-ku, toy bola“, deydi. Shunda erkalanib ketaman. O'ziyam 3-sinfga borgan bola katta bo'ladi-da. Ayniqsa, qo'shish-ayirish, ko'paytirish va bo'lishni bilsa. Birlik, o'nlikni-chi? Buniyam bilib olganman. O'rganishim rosa qiziq bo'ldi. Faqat daftar-kitobga o'ralashib qolmay, ajoyib narsani o'ylab topdim, o'r-toqlarim ham hayron qolishdi. Ko'p qavatli binoda yashasang, zo'r bo'larkan. Xohlasang-xohlamasang, nechta zina yuqoriga ko'tarilishingni bilging kelarkan. Ba'zan mehmon kelsa-yu, lift ishlamay qolsa, „Namuncha zinangiz ko'p-a?“ deyishadi. Shunday qilib, zinani sanashga tushdim. Bahonada hisoblashni ham bilib oldim. Hmm... yo'lakdan birinchi qavatga beshta zina bilan ko'tariladi. Hozircha uni hisoblama-y turay. Bir... ikki... uch... o'n bir! Ozgina burilib, yana ko'tarila boshladim. Bir... ikki... uch... O'n bir deganimda ikkinchi qavatga yetdim. Endi qarang. Zinaning birinchi qismi o'n bitta, ikkinchi qismi ham






o'n bitta. Ya'ni o'n birni o'n birga qo'shsak, jami yigirma ikki. Ikkinci qavatdan uchinchi qavatga ham xuddi o'shanday chiqdim. Uchinchidan to'rtinchiga-chi? Bu ham roppa-rosa yigirma ikkita. Uyimizga chiqish uchun nechta zinadan ko'tarilarkanman? Uchta yigirma ikkini bir-biriga qo'shgandim, oltmisht olti chiqdi. Men-ku shuncha zinani bosib chiqsam, to'qqizinchi qavatda turadigan o'rtog'im nechta zinadan chiqarkan-a? Avvaliga ikkini sakkiz marta yozib chiqdim. Voy-bo', rosa cho'zilib ketarkan-u.

Baribir, qiynalib bo'lsa-da, qo'shib hisobladim. Bir yuz yetmish olti chiqdi. Osonroq yo'lini topmaymanmi, dedim-da, yana o'yladim. Yigirma ikkini sakkizga ko'paytirsam-chi? Qani, yozib ko'ray, ikkini sakkizga ko'paytirsak, o'n olti. Oltini yozamiz. Bir yodda. Yana ikkini sakkizga ko'paytiramiz, yana o'n olti. Yoddagi birni qo'shsak, o'n yetti bo'ladi. Jami bir yuz yetmish olti. To'g'ri chiqqanida yashavor, deb yubordim. Endi matematikaga qiziqib qolganimga ishongandirsiz. Faqat sizga sekin aytib qo'yay, shu... sal karra jadvalda yanglisyapman-da. Hademay hammasini yaxshilab yodlab olaman. Kim biladi, katta bo'lsam, katta matematik bo'larman. O'shanda matematikani



qanday o'rgangansiz deyishsa, zinalarni sanab o'rganganman, deyman. Ustozim buni eshitib qolsa, sira xafa bo'lmaydi. Chunki u meni judayam yaxshi ko'radi... Iya, iya... bir yuz yetmish oltiga beshni qo'shish esimga kelmabdi-ku. Axir yo'lakdan birinchi qavatga beshta zina orqali ko'tariladi-ku!





AHILLIK


Katta hovuz chetidagi pastroq yerda bir chuqur bo'lib, unga toshbaqa bilmasdan qulab tushibdi. Qancha urinmasin, u yerdan chiqsa olmabdi. Bir payt „top“ etib bir sichqon ham yoniga yumalabdi. Sichqon jon holatda, hatto toshbaqaga ham e'tibor bermay, chuqurdan o'rmalab chiqishga urinibdi. Lekin chuqur devoridan sal o'rmalab yana qayta qulab tusharmish.

Oxiri holdan toyib, jim qolibdi.

– Hoy, sichqon, – debdi bir payt toshbaqa, – endi u yerdan ikkovimiz ham qancha urinmaylik, chiqolmaymiz, shekilli. Lekin seni ko'rib hozir menga bir fikr keldi. Birgalashib bu chuqurdan chiqsak bo'ladi.

– Qanday qilib? – so'rabdi sichqon ishonchsizlik bilan.

– Bir yo'li bor, – davom etibdi toshbaqa, – Yakka-yakka harakat qilsak, buning iloji yo'q. Birlashamiz. Masalan, men suvda cho'kmay suzishni bilaman.





Sen mening ustimga chiqib olasan. Buning uchun shu turgan chuqurimizni suvga to'ldirishimiz kerak. E'tibor qilgan bo'lsang, sal narida, tepada suv to'la hovuz bor edi.

– Ha-ha, ko'rgandim, – debdi sichqon shoshib.
– Sen yerni kovlashga ustasan, – debdi toshba qa. – Shu yerdan hovuzgacha yo'l qazib borsang, hovuz suvi o'sha yo'l orqali biz turgan chuqurga o'ta boshlaydi. Faqat ehtiyyot bo'l. Hovuzgacha qazib borib, suv kirishi bilan yugurib orqaga qaytib kel. Keyin chuqurimiz suvga to'la boshlaydi. So'ngra tezda kosamga chiqib olasan. Men esa suv yuzasida turib, chuqur suvga to'lgan sayin, yuqoriga ko'tarilaveraman. Biz turgan chuqur hovuzdan pastroqda bo'lgani uchun limmo-lim to'ladi, ikkimiz quruq yerga chiqib olamiz.

Sichqon toshbaqaning chorasiiga qoyil qolibdi va u aytgandek ish tutib, ikkovlari ham chuqurdan qutulishib chiqibdi.

Ha, ahillikda gap ko'p.

Har qanday qiyinchilikni puxta o'ylangan chora va inoqlik bilan yengib o'tish mumkin.



AJOYIB TOPISHMOQ

Gulshoda bilan Akbarshohning yaxshi ko'rgan o'yini – topgan-topaloq. Bugun buvisi ajoyib topishmoq aytgandi, bolalarning boshi qotdi. „Avval u menda bor edi, hozir esa yo'q“, dedi buvisi.

- Yeydigan narsami?
- Yo'q.
- Zarli ko'ylagingiz.
- Topolmading.
- Singan ko'zoynagingiz. Usta tuzatolmaganida tashlab yuborgandingiz.
- Yo'q. Qani, yaxshiroq o'ylanglar-chi?
- Topdim! O'tgan yili tishingizni oldirgandingiz, – dedi Akbarshoh.
- Yaqinlashding. Ammo bu emas.

Opa-uka javoblar aytib ko'rishdi. Ammo topisholmadi.

Gulshoda oyisidan yordam so'radi.

- Menimcha, buvingning qora sochlari yo'qolganadir. Ular hozir paxtaday oppoq.



- Topdim, – dedi Gulshoda buvisini quchoqlab, – qora sochlaringiz yo‘qolgan.
- Sen ham yaqin kelding, lekin to‘liq aytmading.
- Yur, dadamdan so‘raylik, – dedi Akbarshoh.
- Balki biving ko‘z nurlarini yo‘qotgandirlar. Axir kecha ko‘rpa qaviyotganlarida „Ko‘zimda nur qolmadi, Akbarshohim, ipni ignadan o‘tkazib ber“, degandilar.

Bu javob ham buvisini qoniqtirmadi. So‘ng nabi-ralariga qarab dedi:

- Topishmog‘imning javobi – yoshligim. Siz aytgan qora soch, tish, ko‘z nurlar yoshligimning bir bo‘lagi. Tekis yuzimda ajinlar tushdi.
- Eh, sehrgar bo‘lsam edi, yoshligingizni qaytarib olib kelardim, – dedi Akbarshoh.
- Uni qayerdan topsa bo‘larkin?! – o‘yga cho‘mdi Gulshoda.
- U shu yerda bor! – kulib yubordi buvisi.

Bolalar hamma xonalarni kezib chiqishdi. Hatto kiyim javonlarini qarashdi. Nihoyat, buvisining javonidan suratlar albomini ko‘tarib chiqishdi.

- Mana, buvijon, yoshligingiz. Mana bu bolalaringiz.



– Voy, – dedi Akbarshoh, – buvim xuddi senga o'xshagan ekanlar. Ko'zlari, yuzlari, kulishlari ham.

– Mana, javobni ham topdingiz! – dedi buvisi Gulshodani quchoqlab o'par ekan.

Bolalar! Siz ham Gulshodaning buvisi bergen topishmoqning javobini topdingizmi?





SABOQ

Yulduz maktabdan chiqib, ukasini bog'chadan uyg'a olib keldi. Qarasa, oyisi hali ishdan qaytmagan ekan.

- Nodir, kel, – dedi Yulduz, – oyim kelishini kutmay, ikkalamiz ovqat qilib turamiz.
 - Ovqat qilishni bilmayman-ku, – hayron bo'ldi ukasi.
 - Men bilaman, – dedi opasi. – Oyimdan o'rganib olganman. Sen menga yordamlashasan.
 - Xo'p bo'ladi, – dedi Nodir qo'llarini ishqab.
- Yulduz oshxonadan kartoshka olib chiqib, arta boshladi.
- Men-chi, Yulduz opa, sizga paqirchamda suv olib kelaymi? – so'radi Nodir.
 - Seni o'zing aqli bolasan-da, mayli, olib kela qol.

Nodir sevinib, bir necha marta suv olib keldi. Yulduz oyisi ko'rsatgandek, sekin gazni yoqdi. Qozonni uning ustiga qo'yib, ozgina yog' soldi. Yog' qizishi



bilan to‘g‘ralgan go‘shtni qozonga tashladi: „jiz“ etdiyu, qo‘Ichalariga yog‘ sachradi. Yulduz og‘riqdan qo‘lini „puf-puf“lab qozonni kovladi. Qozondan ko‘tarilayotgan bug‘ bilagining yog‘ sachragan joylarini bat tarroq achishtirardi. Yulduz qiynalib-qiynalib go‘shtni qovurdi, so‘ng ustiga piyoz va kartoshkani soldi.

Bir payt Yulduzning ko‘zlari yoshlaniib, achisha boshladi. U hayron bo‘lib, atrofga razm soldi. De raza darchalarini ochmagani uchun oshxonaga tutun qamalib qolgan edi. Yulduz darrov kursiga chi qib, derazani ochdi. Oshxonaga toza havo kirdi. Qarasa, stol ustida kartoshka, piyoz po‘choqlari qalashib yotibdi. U darrov po‘choqlarni yig‘ishtirib, tashlab kelish uchun ukasiga berdi. O‘zi sochiqni ho‘llab, stolni yaxshilab artdi. Keyin tog‘orada idish tovoqlarning hammasini yuvib, joy-joyiga qo‘ydi. „Ov qat qilish judayam qiyin ekan. Oyim har kuni rosa qiynalarkan“, – deb o‘yladi o‘zicha Yulduz. – Men buni bilmas ekanman. Ukam bo‘lsa gohida tayyor ovqatni ham yemayman, deb xarxasha qiladi.

- Nodir, qanisan? – chaqirdi opasi.
- Bu yerdaman, – stol tagidan chiqib keldi. U o‘yinchoqlar bilan ovora edi.



- Nodir, men nonni kesib turaman, sen likopcha-ga taxlagin.
- Bo'pti! – xursand bo'ldi Nodir. Ular ishga berilib ketib, uya oyisi kirib kelganini ham sezmay qolishdi.
- Hormanglar, bolajonlarim, – dedi oyisi ularni ko'rib.
- Men ishda biroz ushlanib qoldim. Xavotir olma-dinglarmi?
- Oyijon! – Nodir yugurib borib, oyisining qu-chog'iga otildi.
Oyisi uni bag'riga bosib, yuzlaridan o'pdi.
- Men kiyimlarimni almashtirib chiqay, ovqat pishi-ramiz, – dedi...





RA'NOXON BILAN SUHBAT

- Qizalog‘im, choyingni shoshmasdan ichgin, – dedi nabirasi Ra’noning sochlarini mehribonlik bilan silab Dilorom buvi. Qaragin, choy judayam qaynoqqa o‘xshaydi.
- Axir shoshib icholmayman. Buning sirayam iloji yo‘q-ku? – hayratlanib buvisiga qaradi qizaloq.
- Qani, ayt-chi, nima uchun? – so‘radi undan buvisi.
- O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, shoshmasdan turib choyni qanday ichish mumkin, – deya bilag‘onlik qildi qizaloq.
- Nega oyoqlaringga ikki xil paypoq kiyib oling? – so‘radi Dilorom opa nabirasi Ra’nodan.
- Shuniyam bilmaysizmi, axir oyog‘im ikkita-ku, – dedi Ra’noxon qo‘llari bilan oyoqlarini ko‘rsatib.
- Ra’noxon, boshingga qalpog‘ingni kiyib ola qol. Tashqari judayam sovuqqa o‘xshaydi. Tag‘in boshing sovuq yemasin, – dedi Diloram opa hovliga chiqayotgan nabirasiga.



- Kiymayman, – qat'iy e'tiroz bildirdi Ra'noxon.
- Nega? – ajablanib so'radi buvisi undan.
- Boshimda og'zim bo'lmasa, u qanday qilib sovuq
yeyishi mumkin, – dedi Ra'noxon jiddiy ohangda
boshini ko'rsatib.

Dilorom opa shokaladni qo'liga berkitdi-da, nabirasi
Ra'noxonga qarab:

- Kel, ikkimiz „qaysi qo'limda“ o'yinini o'ynaymiz.
Agar to'g'ri topsang, senga shokolad beraman, –
dedi. – Qani, top-chi, u qaysi qo'limda?
- Oldin o'zingiz ayting, – dedi Ra'noxon erkalanib.





BURGUT

Qishloqda Rahimjon degan do'stim yashaydi.
Uyini ko'rsangiz...

Sa'va, kaklik, tovuq, quyonlardan tortib, burgutgacha bor. Aytgancha, o'tgan yili borganimda burgut yo'q edi. Bu yil paydo bo'lib qolibdi. Burgutning bu uyga qanday kelganini do'stim aytib berdi:

– O'shanda Roziq amakim uyimizda edilar. Ular tog' qorovuli. Bu gal ham tog'dagi voqealar haqida gapiroayotgan edilar, birdan osmonda qandaydir bahaybat qush paydo bo'ldi. U asta bedazorga tushdi. Qanot yozib uchmoqchi bo'ldi-yu, ucha olmadi. Hammamiz yugurib bordik. Roziq amakim qushni ko'rdilar-u, hayron bo'lib qoldilar.

– Burgut-ku! Qiziq, bu yerga qanday kelib qoldi ekan?! – dedilar sal yaqinlashib. – Yaradorga o'xshaydi. Oyog'i, qanoti qon. Yugur, xurjunda oq dori bor, olib kel!

Shoshganimdan oq dorini qidirib o'tirmay, xurjunni ko'tarib kelaverdim. Roziq amakim avvaliga



burgutning boshiga qop yoptilar-da, uni mahkam o'rab oldilar. Bu shunchalik tez bo'ldiki, hatto qanday qilib qop yopganlarini zo'rg'a ilg'ay oldim. Amakim xurjundan olgan dorilarni ezib, maydaladilar-da, burgutning yarasiga sepdilar. Dori sepilganda burgut bir tipirchilab, Roziq amakimning qo'lidan chiqib ketdi. Lekin boshidagi qop unga xalal berib, qocha olmadi.

Ertasi kuni Roziq amakim keta turib menga:

– Har kuni erta bilan besh-olti dorini maydalab sep. Bir haftaga qolmay tuzalib ketadi, – dedilar.

Bu gapdan ko'nglim taskin topdi. Darhaqiqat, amakimning gaplari to'g'ri chiqdi. Bir haftada burgutning yaralari bitdi.

U yaxshigina yurar, lekin ucholmasdi.

– Endi uchsa ham uyingdan uzoqqa ketmaydi. Burgutni qo'lga o'rgat! – deb maslahat berdilar Roziq amakim bir safar kelganlarida. „Qo'lga qanday o'rgataman, axir burgutning uyi tog'da-ku“, – deb o'ylardim o'zimcha.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Burgut bir necha bor uchib ham ko'rdi. O'shanda quvonganimni ko'rsangiz edi. Chapak chalib, o'yinga tushib ketdim. Lekin burgut uzoqqa ketmadi. Yana qaytib keldi.

Shu-shu burgut uyimizda.

Rahimjonning gaplarini tinglab burgutga tikilib qoldim. Ucholmasligini o'ylab, mening ham unga rahmim keldi. Burgut esa bepoyon ko'kka, olis-olis-lardagi kumush tog'larga xomush qarab qo'yardi.





TEKIN DAROMAD

Ko'chadagi katta tosh ustida o'tirgan Olimning yoniga Salim kelib cho'kkaladi:

– Qalaysan, oshna, pashsha qo'rib o'tiribsan, be-korchilikmi?

– O'tiribman, o'tganning o'rog'ini, ketganing ketmonini olib.

U Olimga va u o'tirgan toshga boshdan oyoq razm soldi:

– Shu o'tirishingda bir rasmga tushadigansan-da! O'ychan. Qoya ustida, – shunday deb u toshni qo'li bilan yurgizdi.

– Nima ekan? – engashdi Olim.

– Qara, qara, nima deb yozilibdi. „Kimda-kim bu toshni sursa, xazinaga ega bo'ladi“.

– Obbo, hushimdan ketayozdim. Shu gapga ishondingmi endi?

Salim toshni sura boshladi, ammo kuchi yet-maganidan turib qo'llarini bir-biriga ishqaladi.

– Kel, yordam ber. Tezroq suraylik, yana bitta-yarimtasi kelib sherik bo'lmasin.

– Ey, galvars, hozir surasanmi, xazinadan umiding bo'lsa, hech narsani bilmaganday o'tir.



Qorong'i tushib, ko'chada hech kim ko'rinxay qolgach, bolalar arqon bog'lab tortishdi. Bo'lindi. Birdan kimningdir sharpasi ko'rindi.

Bahodir hayron qolib:

– Iya, iya, og'aynilar! Nima harakat, hormanglar.

– Salomat bo'l! Hech narsa, shunchaki, o'zimiz.

To'xtavoy amaki shu toshni surib qo'yinglar, deganlariga surib qo'yayapmiz.

– Savob ish, denglar! Ha, mayli, yordam kerakmi?

Bolalar bir ovozdan „yo'q, yo'q“, deb javob berishdi.

Bahodir ularga ajablanib qaradi-yu, nari ketdi.

Nihoyat, bir amallab tosh surildi.

Qarashsa, quduq eshigi. Shu payt quduqning eshigi o'z-o'zidan surilib, ichidan Sobir chiqdi. Ularga bir xo'mrayib qaradi-yu, tushdan bir bo'lak kesakni jahl bilan uzoqqa otib yubordi.

– Nima qilib qo'ydilaring?! Endi men yutqazdim.

Qanchaga tushganimni bilasanlarmi o'zi?

Olim bilan Salim ajablanib bir ovozdan:

– Iya, sen nima qilib yuribsan bu yerda? – deyishdi. Shu payt ancha bolalar yugurib kelib:

– Ana, aytmadikmi, tekin daromad qidiruvchilar sen yashaydigan ko'p qavatli uydan chiqadi, deb. Yutqazding, oshna.



KICHIK TOPAG'ONLAR

Asfaltga surat chizishdan bahslashayotgan mahallamiz bolalari zerikishdi shekilli, ko'p o'tmay topishmoq aytishga tushib ketishdi. Boshlang'ich sinf darsliklaridan menga tanish topishmoqlar...

Biri aytib tugatmasdan, javobini deyarli hammalari birvarakayiga topishadi...

Xullas, bisotlari tugab, o'zлari topishmoq to'qiy boshladilar. Judayam qiziq, birinchi, ikkinchi sinf o'quvchilarining tillari bunchalik biyron, topishmoqlarni qoyil qilib aytishlaridan yoqa ushlaysiz. Qofiyasini kelishtirib so'zlashlarini aytmaysizmi...

– Qora-qo'ng'ir tusli, qutichada turadi, juda shirin, so'ramay olsang, opang uradi! Topinglar?

– Shokolad! Shokolad, – baqir-chaqir boshlanib ketdi.

– Dunyoda eng chiroyli va mehribon?...

– „Oyim!!!“ – deyarli hamma bolalar birdan topishdi.

– „Xarxashani ko'p qiladi, oyog'ini do'p, do'p, qiladi?“

Bolalar o'z ukalarining ismlarini takrorlay ketishdi.



– „Boshda do'ppi, cho'qqi soqol, uxbab o'tiradi behol?“

– Nosqovoqda bo'lsa nosi, oyna sinsa, yo'q parvosi?!”

– Maktabimiz qorovuli – Hakim amaki...“

Shu payt yo'lakdan ko'ylagini yechib yelkasiga tashlab, yarim yalang'och holda qo'shiqqa o'xshash, baqiriq ovoz chiqarib, sochlari to'zg'igan kishi kela boshladi.

Burrotil Sur'at topishmoq aytardi:

– „Har kuni kelar, ichib aroq, soch to'zg'igan, yo'qdir taroq, mahallada eng baqiroq...“ Topinglar!

Bolalar orasida jonlanish sezildi. Ularning ko'pchiligi, goh kelayotgan kishiga, goh chetda o'tirib o'yinchoq otni sakratishga chog'lanayotgan Olimga qarashardi.

Hech kim topishmoq javobini aytmadni. Oraga jumlik cho'kdi.

Birozdan so'ng Olim o'rnidan turdi. Ikki ko'zida yosh yaltiradi.

U ho'ngrab yig'lab yubordi va yugurganicha uy tomon chopib ketdi...

Olimni yig'latgan, so'nggi topishmoqning javobi... uning dadasi edi...



CHO'PON TOYCHOQ

Do'rmondagi „Ijod uyi“ tomon yo'l oldim. Har galgidek tanish bekatga kelib tushdim. Masofa unchalik olis emas, ikki chaqirimcha yayov yurish kerak. O'tgan yili may oyida kelganimdagi go'zal manzaralarni xayoldan o'tkazib, ikki yuz metrcha yurganimni bila-man, Qibray tarafdan „Yo'ldan qoch!“ deya chinqir-gandek, pishqirib poyezd kelyapti. Oldinda esa temir yo'lning qoq o'rtasidan bir yoshgina qizg'ish tusli toychoq bir gala molni oldiga solib quvib bor-yapti.

„Yo-o-o tavba! Nahotki, bu shum toychoq shuncha molning joniga qasd qilsa-ya, hozir poyezd ularni tilka-pora qilib yanchib ketadi-ku?!“ degan qo'rquv xayolimdan shuv etib o'tdi.

Poyezd esa yer-u ko'kni larzaga solib yaqinlash-yapti. Temir yo'l yerdan ancha baland, atrofi chuqurlik, qalin terakzor-u daraxtlar bilan qoplangan. Jonivorlar qanday qilib temir yo'lga kirib qoldi ekan? Sho'rliklar dahshatli xavf yaqinlashgani sari vahimaga tushib




telbalanib chopishardi. Men ulardan ko'zimni uzmay qarab turibman.

Bir payt haligi toychoq mollarni turtib-surtib, o'taga kirib oldi-yu, qo'ylardan ba'zisini tishlab, boshqalarini tepib, temir yo'ldan chetga uloqtiraverdi. Sanab turibman, sakkiz bosh qo'yni pastlikka uloqtirib tashlagach, hamon oldinda chopib ketayotgan ko'k sigir bilan bolasiga yetib bordi-da, ularni ham shu lahzaning o'zida ko'ksi bilan urib, temir yo'ldan chiqardi. Va ortidan o'zi ham pastlikka sakradi. Aynan shu payt poyezd atrofga dahshat solib chinqirgancha o'tib ketdi. Men esa „Xayriyat-e!“ – deb chuqur nafas oldim.

Keyin boyagi toychoq „Hammasiga sen aybdor, oliftalik qilib noto'g'ri yo'l tortib qo'yding!“ – deganday, bosh egib turgan sigirga pishqirib nimadir deganday bo'ldi-da, ularni ancha olisda g'uj bo'lib turgan qo'ylar tomonga haydab ketdi.

Toychoq ko'z o'ngimda matonatli, jasur haloskor, afsonaviy tulporga aylandi.

– Ha, birodar, ularga muncha tikilib qarab qoldingiz? – deb qoldi orqa tomondan kelayotgan kishi... Qarasam, oltmis yoshlар chamasidagi semiz, siyrak soqol, qisiq ko'zli kishi jilmayib turibdi.





– E-e, birodar, siz bu jajji toychoqning jasoratini ko‘rmadingiz-da, – dedim hozirgina bo‘lib o‘tgan hayratlanarli voqeani g‘ururlanib so‘zlar ekanman.

Oldin u meni yaxshilab tingladi, keyin rosa miriqib-miriqib kuldi:


– Bu mening cho‘pon toychog‘im, birodar! Ilgari o‘zim boqardim bularni. Endi shu toychoqning o‘zi boqib kelyapti. Yaqinda bir yoshdan oshdi. Bechoraning onasi uni tug‘di-yu o‘ldi, yetim qoldi, jonivor. Men uni shishada sut berib boqdim. Mollarim bilan birga katta bo‘ldi, sho‘rlik: Endi mollarni uning o‘zi boqyapti. Ertalab 7 da haydab ketib, kech soat 7 dan og‘ishmay uyga qaytarib keladi, aqlligim. Qani, mollardan birontasi mevali daraxt shoxiga intilib ko‘rsin-chi, oladi undan olarini, faqat yerdagi o‘t-cho‘plarni yediradi, ularga. O‘zim shunday o‘rgataman-da, toychoqqa...

– Qoyil! – deyman men.
– Ana! Qara, qara, o‘zing ko‘r, – dedi xandon otib kulganicha qo‘lini mollar tomonga cho‘zib...

Qarasam, ko‘k sigir bir katta gilos daraxtining novdasini egib chaynamoqchi bo‘lyapti. Toychoq bo‘lsa, molni tumshug‘idan tishlab qaytaryapti.



- Ko'rdingmi, birodar! Bekorga men uni senga aqlii, deb maqtamadim. Bu bog'larni o'zim yaratganman.
- Rahmat, og'ayni! Sizga ham, siz o'stirgan o'sha jasur cho'pon toychoqqa ham, – dedim-da, u bilan xayrslashdim.





BUVINING ISH QUROLI

Sherzod bilan Shahzod buvijonisi bilan qishloqqa – amakisini ko'rgani ketishayotgandi. Qarshilariidan oppoq yaktakli, qo'lida qaychiga o'xshagan nimadir ushlagan amaki chiqib qoldi. Bolalar buvilariga qo'shilib amakisiga salom berishdi.

– Buvijon, amakining qo'lidagi nima? – so'radi Shahzod, amaki uzoqlashgach.

– Shuniyam bilmaysanmi, tok qaychi-ku, – bila-g'onlik qildi Sherzod.

– Vuy, tog' qaychi deysanmi? Nima, amaki unda tog'ni qirqadimi? – hayratlandi Shahzod.

– Tog' qaychi emas, tok qaychi. Tok qaychida tokni xomtok qilishadi, daraxtlarning; butalarning ortiqcha shoxlarini kesishadi. Amaki – bog'bon. Tokqaychi bog'bonlarning ish quroli, – tushuntirdi Mavjuda buvi.

– Voy, buvam miltiq, tank, avtomat, pulimyotni qurol, deganlar-ku.

– Buvang harbiy qurollar haqida gapirganlar. Men ish quroli haqida gapiryapman. Har bir kasb egasining ishlatadigan maxsus asboblari bo'ladi. Ana shular ish quroli deyiladi. Masalan, mening ish qurolim – igna bilan ip. Negaki men tikuvchiman.

– Dadamning ish quroli-chi?



- Dadangning ish quroli – avtobus. Chunki u haydovchi, avtobus haydaydi.
 - Voy, buvijon, avtobus juda katta-ku, uyam ish quroli bo'ladimi?
 - Bo'ladi.
 - Shuning uchun uni qo'llarida ko'tarib yurolmas ekanlar-da, – qiqirladi Shahzod. – Oyimning ish quroli nima?
 - Oying o'qituvchi, uning ish quroli – daftар, qalam, doska, bo'r.
 - Bilmadiz, oyimning ish qurollari-chi, buvijon, qozon, cho'mich. Qozon, cho'mich bo'lmasa, oyim bizga ovqat pishirib berolmaydilar, – o'zining gapini ma'qulladi Shahzod.
 - Bu gaping ham to'g'ri, oshxona bekasining ish quroli qozon, tovoq, cho'mich, – kului Mavjuda buvi.
 - Buvijonlarning ham ish quroli bormi?
 - Buvilarning ish quroli yo'q, bolam. Buvi – bu kasb yoki hunar emas-ku, – o'ylanib qoldi Mavjuda buvi.
 - Yo'q, men bilaman: buvilarning ham ish quroli bor, – Shahzod buvisini quchoqladi.
 - Xo'sh, bilag'onim, qani, ayt-chi, buvilarning quroli nima ekan?
 - Buvilarining ish quroli – bu siz aytib beradigan qiziq-qiziq ertaklar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar.
- Mavjuda buvi nabiralarini mehr bilan quchoqladi.



QATIQ

Habibaning endigina tili chiqayotgan ukasi shammollab qoldi, onasi ovqat qilgach, dastyor qiziga piyola berib:

– Bor, qizim, Zebiniso buvinglarnikidan qatiq olib chiqqin, ukangning oshini qatiqlab beraylik, – dedi.

Habiba qo'shnilar nikiga kirganda Zebiniso buvi shirin qizchaning piyolasiga to'latib qatiq quyib berdi. U piyolani ko'tarib chiqarkan: „Yalasam qanday bo'larkin?“ – deb o'yladi va bir marta yalab ko'rdi: „Vuy, judayam shirin“. Piyoladagi qatiq „yalayver“ degandek, muzqaymoqdek tovlanib turardi. Habiba u yoq-bu yoqqa qaradi-da, hech kimni ko'rмагач, piyolani ko'tarib icha boshladi. Qarasa, piyolada hali qatiq ko'p, „E, ukamga jinday yetadi“, dedi u ichida va ichib-ichib piyolani bir pasda bo'shatib qo'yganini o'zi ham bilmay qoldi. Eshik og'ziga yetganda ko'rsaki, piyolada zig'irdek ham qatiq qolmabdi: „Qatiqsiz kirsam ayam urishadilar, Zebiniso buvimdan yana so'rasammikin? Berishmasa-chi?... To'kilib ketdi deb yolg'on gapiraman, keyin beradilar“, deb o'yladi

va o'z kashfiyotidan xursand bo'lib, yana Zebiniso buvinikiga yugurdi.

– Buvi, yana qatiq bering,— dedi u eshikdan kirar-kirmas.

– Hozirgina quyib bergandim-ku, — so'radi buvi.

– To'kilib ketdi, — deb qizaloq yolg'on gapirdi-da, o'zi sholg'omdek qizarib ketdi.

– Agar to'kib yuborgan bo'lsang senga boshqa qatiq bermayman, yana to'kib yuborasan, bor, yaxshisi ayangning o'zi chiqa qolsin, — dedi Zebiniso buvi. Habiba bunday bo'lishini kutmagan edi, yolg'on gapi foyda bermagani uchun nima qilarini bilmay picha gangib qoldi: „Rostini aytsammikin, — deb o'yladi, — Ha, qatiqsiz kirsam ayam xafa bo'ladilar, rost gapirib ko'ray-chi? Baribir rost gapishter kerak!“

– Buvijon, — dedi u sekin, — qatiqni to'kib yubormadim, shirin ekan, bilmay hammasini ichib qo'yibman, endi aldamayman, qatiq bering.

Zebiniso buvi buni eshitib yumshadi:

– Ey, shunaqa demaysanmi, endi yolg'on gapir-magin, yolg'onning umri qisqa, bolam, piyolani ber, agar qatiq ichging kelsa, uyalmay chiqaver-gin, men quyib beraveraman, faqat aldashga o'rganmagin,



xo'pmi, qizim?! – dedi buvi chehrasi yorishib va piyolaga yana to'ldirib qatiq quydi-da, Habibaga uzatib:

– Ma, buni darrov uyingga olib kirgin, qatiq ichging kelsa, qaytib chiq, bor, bolam, ona qizim, – deb qayta-qayta tayinladi.

Habiba „xo'p“ dedi-da, boya yolg'on gapirganidan uyalib, qizarganicha uyiga yugurdi.

ARAZ

Yoqimli hid chiqib turgan oshxonaga kirgan Charos:

- Oyi, bugun nima ovqat? – deb so'radi.
- Qovurma, qizim.
- E, qovurma yemayman, – dedi u chaqaloqdek lablarini cho'chchaytirib.
- Nima yeysan bo'lmasa? – so'radi onasi jig'ibiyron bo'lib, – har kuni shu ahvol: palov qilsam, sho'rva deysan. Yemasang yema!

Charos onasidan anchadan beri bunaqa nordon gap eshitmagani uchun angrayib qoldi, so'ng oyoqlarini tapillatib yig'lay boshladи.



– Yig'lama, bo'ldi, – onasi jerkib berdi. Charos ko'zlar qizarib, yugurgancha xonasiga kirdi-da, o'zini yostiqqa tashlab tumtayib oldi.

Oradan ancha vaqt o'tdi hamki, har kuni erka qizining arazidan keyin kelib erkalaydigan onasi negadir bugun kelmadi. „Mayli, arazlab yotaveraman“, o'yladi Charos. Bir payt onasi bilan dadasi uni ovqatga chaqirishdi, lekin Charos ovqatni xuddi birov uchun yeydigandek arazlab chiqmay yotaverdi. „Hozir oyim keladilar, baribir, shirin qizim, asal qizim, kel, ovqatingni yeb ol, senga muzqaymoq, shar olib beraman“, deydilar deb eslab, Charos jilmayib qo'ydi. „Baribir, o'shandayam arazlayveraman“, o'yladi, „Ertaga nima ovqat xohlasang qilib beraman, qo'g'irchoq olib beraman, ertak aytib uxlataman“, deydilar, keyin ovqatlanaman...

Bir payt Charos ko'zlarini ochdi, chiroq o'chgan, oshxona ham, mehmonxona ham qorong'i. Uning qorni ochqadi, avvaliga nima qilishni bilmadi, o'rnidan turib o'tirdi-da, o'ylanib qoldi: „Savatdan non olib yesammikin? Oyim nega kelmadilar? Uxlashganga o'xshaydi, mayli, o'zim non olib yeymen, qovurmani yemayman“.



U oshxonaga kirdi, stul ustiga chiqib chiroqni yoqdi, savatni qarasa, non yo'q: „Iye, non ham qolmabdi-ku, suv bilan qorin to'yarmidi, – keyin javonni ochdi. – „Iye, tort bor edi-ku, qaniykin?“ Yo'q!

U nima qilishni bilmay, choynakni ko'tarib ko'rdi, choynak ham bo'm-bo'sh edi, oxiri borib qozonning qopqog'ini ko'tardi, „Hech narsa qoldirishmabdi-ku, endi nima qilaman, qornim biram tatalayaptiki, qaniydi, ozgina bo'lsayam qovurmadan bo'lsa, mazza qilib yeb olardim, qovurma ham shirin-ku, ha, shirin“. Charos oshxona o'rtasida haykaldek turib qoldi, qorni mushuk tatalagandek bo'lardi, odam och bo'lsa uyqu ham kela qolmaydi, uf tortdi. „Nima qilsam ekan-a, ozgina qattiq non bo'lsayam mayli edi, endi och yotaveramanmi, oyim xafa bo'ldimikin, kechirim so'rasammikin, bundan keyin sirayam ovqatga chaqirmasalar-a?!“ Charos o'z o'ylaridan qo'rqib ketdi, ko'zlari oldida oqish, g'irashira yumaloq sharchalar aylana boshladi, ko'ziga o'rtoqlari ko'rindi, ulardan biri maza qilib xo'rozqand so'rар, boshqasi qovurma yer, uchinchisi sutli osh ichardi va Charosni „Ha, arazchi? Qalaysan?“ degandek tillarini chiqarib kalaka qilishardi. Charos

ko'zlarini yumib-ochdi, qorni hushtak chalgandek bo'ldi, o'rtoqlariga havasi kelib, ko'zlaridan yosh quyilib, polga tomdi: „Och yotaveramanmi, oyijon, kechiring, endi sirayam arazlamayman...“ U endigina baqirib yubormoqchi bo'lgandi, oshxonaning eshigi ochilib onasi ko'rindi:

- Ha, qizim, bu yerda nima qilib turibsan?
- Charos onasini mahkam quchoqladi:
- Oyijon, endi... endi sirayam... – u gapini davom ettirolmay yig'lab yubordi.





XAZINALAR XAZINASI

Bolalar maktabdan uylariga qaytishardi. Har kuni chala qoladigan bahs yana davom etdi.

– Xo'sh, – deb gap boshladi hamisha bu bahsga hakamlik qiluvchi Tansiq.

– Bugun kimning xazinasi nima bilan boyidi?

Xuddi shu gapni kutib turgan Soraxon Tansiq gapini tugatishi bilan maqtana ketdi:

– Kecha mening oyim o'zlari ishlaydigan do'konidan chiroyli sandiqcha olib keldilar. Sandiqchani ochib qarasam, ichida sirg'a, munchoq, lenta, har xil tugmachalar, to'g'nag'ichlar ham bor ekan. Bularning hammasini oyim menga berib: „Bu sandiqcha sening xazinang, uni ehtiyyot qil“, dedilar. Endi mening xazinamga teng keladigan xazina hech biringizda yo'q, shunday emasmi?

Ko'p bolalar havas qilganday Soraxonga bir zum tikilib qolishdi. Lekin Muborakning o'z dugonasidan kam bo'lgisi kelmasdi.

– Bizning uyimizdagi garniturda kosa, tovoq, choynak, piyolalar juda ko'p. Oyim menga: „Bular kelajakda seniki bo'ladi“, dedilar. Demak, ular hozir



ham meniki. Nima, bular Soraxonning sandiqchasi-dan kammi?

– Ana, ko'rdinglarmi? – dedi hakamlarga xos ovoz bilan Tansiq. – Hammamizning xazinamiz kundan-kun ko'payib boryapti. Sobir, sening ham hech xazinang paydo bo'ladimi? Yoki o'g'il bolalarda xazina bo'lishi shart emasmi?

Bu gapdan bolalar baravariga kulib yuborishdi. Chunki Sobirjon bu bahsga hech aralashmas, o'z o'y-xayollari bilan bo'lib, yo'lda doimo duch kelgan toshchalarni tepkilab, o'ynab borardi. Ammo bu galgi kulgi unga qattiq ta'sir etdi shekilli, shartta burilib:

– Mening xazinamga teng keladigan xazina hech biringizda yo'q! – dedi. Bu javobdan barcha bolalar hang-mang bo'lib qolishdi.

- U qanday xazina ekan?
- Judayam kattami?
- Bizga ham ko'rsatasanmi?
- Ayta qolsang-chi?

Sobirjon esa bamaylixotir javob berdi:

– Juda ham katta xazina. Faqat uni o'z ko'zla-ringiz bilan ko'rgandagina ishonasizlar. Yuringlar uyga, ko'rsataman.



Bolalar qiziqish bilan Sobirjonning uyi tomon oshiqdilar. Borgunlaricha har birlari turli narsalarni aytib bordilar. Sobirjon esa „Yo‘q“ degan ma’noda boshini sarak-sarak qilib borar edi. Uning xonasiga kirganlarida esa ko‘zlari karavot, stol, stul va kichik kitob javonidan boshqa hech narsaga tushmadi.

– Qani xazinang? – deb birvarakay so‘rashdi bolalar Sobirjondan.


– Mana, – dedi Sobirjon kitob javonini ko‘rsatib.
 – He, shu ham xazina bo‘libdimi?
 – Balkim xazinasini kitoblari ichiga yashirib qo‘ygandir. Shundaymi, Sobirjon?

– Ha, kitoblar ichida o‘sha xazina yashiringan. Faqat uni men emas, balki shu kitoblarni yozgan kishilar yashirib ketganlar.

– Ho, kim o‘z xazinasini kitob ichiga yashirib ketadi, uni darrov topib oladilar-ku? – dedi Tansiq.

Sobirjon qotib-qotib kuldi. Keyin esa so‘radi:
 – Birortangiz mактабимиз kutubxonasiga kirganmisizlar?

– Men kirganman, – dedi Soraxon.
 – Kirgan bo‘lsang, ko‘zing hech narsaga tushmaganmi?





– Yo‘-o‘q, men kitob olganim yo‘q, o‘qituvchimizning topshirig‘i bilan kirgan edim.

– Men esa ko‘p kirganman, – dedi Sobirjon. – Kutubxona peshtoqiga shunday shior yozilgan: „Kitob – xazinalar xazinasi. Ularni o‘qiganlargina bu xazinadan bahramand bo‘ladilar“. Bu xazina – bilim-ku.

Bolalar kitob javoniga qarab qolganlarini ko‘rgan Sobirjon so‘zida davom etdi:

– Mana shu javonda 97 nusxa kitob bor. Ularni dadam olib bergenlar.

– Shu kitoblarning hammasini o‘qidingmi? – hayratlanib so‘radi kitob o‘qishni uncha xush ko‘rmaydigan Hoshimjon.

– Ha, hammasini o‘qidim. Nima, sizlarda kitob yo‘qmi?

Hoshimjon bo‘ynini qashib „yo‘q“ degan javobni aytishga iymanib turar edi.

– Biznikida bir necha kitob bor, lekin ularni o‘qiganim yo‘q. Endi albatta o‘qiyan, – dedi Soraxon.

– Men oyimdan kitob javoni va kitoblar olib berishni so‘rayman, – dedi Tansiq.



Bolalar uy-uylariga qaytar ekanlar, har birlari xazinalar xazinasiga qanday ega bo'lishni endi bilar va qachondan beri davom etib kelayotgan bahs nihoyasiga yetganini asta-sekin tushunib yeta boshlagan edilar.

XAYR, BOG'CHAJON, BOG'CHAM

Xolida ukasini bog'chaga kuzatib, ko'cha eshikkacha chiqdi. Ukasi orqasiga qayrilib ham qaramadi, dadasingning qo'lidan ushlab, dikir-dikir sakrab, o'y-noqlab ketaverdi. Ular muyulishga ham yetib qolishdi, ana, hozir burilishadi....

Xolida oldinga intilib, qo'lini ko'tardi. „Men ham!“ – deb qichqirmoqchi edi-yu, lekin... lekin ketib qolishdi. Uning ko'ngli buzildi. Boshini eggancha astasekin yurib, hovliga kirdi. Quchoq yetmaydigan yong'oqning erdan qaynab chiqqan yo'g'on tomiri orasiga yashirinib o'ynashayotgan g'urraklar jim bo'lib qoldi. Birozdan so'ng ulardan bittasi „g'u-g'u, g'u-g'u“ deb g'urilladi. Bu Xolidaning qulog'iga „ha“, „ha“, deb undan xol-ahvol so'rayotgandek tuyuldi. Uning xo'rligi kelib ketdi. Axir har kuni dadasingning



bir qo'lini u, bir qo'lini ukasi ushlab, bog'chaga birga borishar, ketishiyotganida oyisining yuzidan o'pib, xayrlashar edi. Bog'chadagi tarbiyachilari biram yaxshi! Har xil ertaklar aytib berardi, she'r yod-latardi. Turli xil o'yinlar o'ynashardi – bog'chada maza edi! Kuni kecha xayrlashuv tantanasi bo'ldi. Hamma o'rtoqlarining oyilari, dadalari kelishdi. Uning oyisi ham keldi. Musiqa o'rgatuvchi tarbiyachi piano chaldi. Bular boshlariga har xil oq, qizil gullardan chambarak taqishib, egnilariga oppoq burma ko'ylak kiyishib, „qorqiz“ bo'lib o'ynashdi. Keyin Xolida „Xayr, bog'chajon, bog'cham“ degan she'rni yoddan o'qidi. O'shanda... o'shanda juda g'alati bo'ldi-da.

O'rta ga chiqib egilib salom berdi-yu, boshini ko'tarsa, hamma unga tikilib turibdi. Tizzalari qaltirab ketdi. Og'ziga so'z kelmasa-ya. Shunda tarbiyachisi unga qarab, jilmayib „qo'rqma“ deganday imlagan edi, bari esiga tusha qoldi. „Xayr, bog'chajon, bog'cham...“ deb baralla o'qiy ketdi.

Ha, u kecha bog'chasi bilan xayrlashdi. Bugun uyida qoldi. Ukasi bo'lsa... Xolidaning o'pkasi to'lib ketdi. Qop-qora ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh oldi. Kipriklari pir-pir uchdi. Pastki labi o'zidan-o'zi qiyshayib, titradi.



Shunda oyisining „Xolida“ deb chaqirgani eshitildi. Bunday qarasa, oyisi ayvonda turibdi.

– Bu yoqqa kel-chi, qizim, – dedi-da, ichkariga kirib ketdi.

Xolida sekin o'rnidan turdi. Orqa etagini qoqdi, bir-bir bosib uyga kirdi.

Oyisi uning qizarib ketgan ko'zlariga qarab:

– Voy, o'quvchi qiz degan ham yig'laydim! – deb kuldi. – Qani, manavi maktab kiyimini kiygin-chi, yarasharmikin.

Oyisi sochini tarab, oq lenta taqib qo'ydi, qo'liga portfel tutqazdi.

– Qani, oynaga qara-chi, yarashibdimi?

Xolida uyalinqirab, dadasingning bo'yidan ham baland tosh oyna oldiga bordi.

– Voy, xuddi o'zi, lekin boshqacha bo'lib qolibdi! Xolida beixtiyor mayda sadafdek tishlarini ko'rsatib kuldi.

– O'h-ho', kap-katta qiz bo'lib qolibsan-ku! – dedi oyisi, uni yelkasidan quchoqlab. – Endi sen kichkina bog'cha bolasi emas, o'quvchi qizsan. Ertaga maktabga borasan.



Xolida mактаб kiyimi kиyганидан so'ng, chindan ham bo'yi cho'zilib qolganga o'xshab ko'rindi. U yugurib borib stulga o'tirdi. Portfelini stolga qo'yib ochdi. Ichidan kitob oldi. O'qishni dadasidan o'rganib olgan. Mana, u kitob ustidagi yirik yozuvga qo'lini qo'yib o'qidi:

– A – L – I – F – B – E! Ichidagi yozuvlarni ham bilaman. Vu-uy, manavi bolalarni! Qizlar menikidaka kiyim kiyib olishibdi. Maktabga borishim bilan men ularni o'zimga o'rtoq qilaman. Ha-ya, bog'chadagi o'rtoqlarim ham birga o'qishadi, maza! – Xolida o'tirgan o'rnida chapak chalib yubordi. – Iye, mana bu bolalar maktabga gul ko'tarib kirib ketishyapti-ku! Kimga! Ha, topdim, o'qituvchilariga-da! Oyi, ha, oy!


- Nima, qizim?
- Men ham.
- Nima „men ham“?
- Gul!
- Kimga?
- Bog'cha opam... yo'q o'qituvchimga.
- Xo'p.

Xolida hovlidagi gulgorga chopib chiqib ketayotgan edi, oyisi to'xtatdi.



– Ertalab, qizim, ertalab, hozir uzsang so'lib qoladi.

Xolida noiloj „xo'p“ dedi. Lekin sabri chidamadi. Ertalab uziladigan gullarni hoziroq o'z ko'zi bilan ko'rib qo'yishi kerak-ku, axir. U sekin hovliga chiqib ketdi. Gulzorda gullarni oralab yurganida quvnab: „Xayr, bog'chajon, bog'cham...“ deb she'r o'qidi.





YETIMTOG'DAGI OV

Tog' etagida joylashgan qorni makon qilgan bir to'da jayra ekin maydonini kunda-kunora payhon qilib kelmoqda. Bobo va nabira xandaqlar ichiga o'rashib, zararkunandalarning qordan chiqishini kuta boshlashdi. Nihoyat, g'or tomondan bir necha sharpa paydo bo'ldi. Ularning chitirlashi borgan sari avj olib, toshdan-toshga sakraganda, uzun oq-qora ninachalari oy yorug'ida yiltirardi. Jayralar ekin maydoni tomon yopirilib o'tayotgan edi.

Qurbon ota bir necha qopqondan foydalanib, ularni tuzoqqa tushirdi. Bobo tozi it bilan quyon, qo'shoyoq kabi mayda sute Mizuvchilarni ham ovлади.

– Shunchaki ermak uchun emas, – dedi u nabitrasiga. – Jonivorlarni bekorga nobud qilishni istamayman. Lekin ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishga majburman.

YAXSHILIK IZLAGAN BOLA

Kechki ovqat mahali edi.

– Bolalar, qo'lingizni yuving, dadangiz keldi, – dedi oyisi.

Otasi uya kirarkan, bolalarning peshanasidan o'pib qo'ydi.

– Ko'cha biram sovuq, shamol ko'z ochirgani qo'ymayapti, – dedi paltosini yechib. – Tepa qavatdagi qo'shnining mashinasi yo'lda buzilib qolibdi. Rosa urindik, yurgizolmadik. Oxiri shatakka olib, tortib kel-dim. Katta yaxshilik qildingiz, deb qayta-qayta duo qildi. O'zim ham yengil tortdim.

Ular mazza qilib ovqatlanishdi. Jamshid otasiga juda havas qildi.

– Dada, men ham yaxshilik qilgim kelyapti, – dedi yaqinroq surilib.

– Xarxasha qilmay, odobli bo'lsang yaxshilik qil-gan bo'lsan. Ertaga buvingni ko'rishga boramiz. Bu ham yaxshilik, – tushuntirdi dadasi.





Jamshid xursand bo'lib ketdi. Ertalab uyg'onga-nida oyisi buvisi uchun somsa pishirib qo'yibdi. Dasturxonga o'rab olishdi.

Ko'chaga chiqishganida maydalab qor yog'ardi. Bekatga yaqinlashganida laylakqorga aylandi. Jamshid kichkina, chiroyli mushukni ko'rib qoldi.

– Oyi, anavi mushukchani qarang. Qorni och shekilli, biror narsa beraylik.

Jamshidning ko'zлari javdirab turardi. Onasi darrov dasturxonga o'ralgan somsadan bitta oldi-da, o'g'liga uzatdi. Jamshid judayam quvondi. Somsani mushuk-chaga ko'rsatib, chetroq joyga qo'ydi. Mushukcha boshini ko'tarmay yeya boshladi. Har zamonda momiq dumchasini likillatib qo'yardi.

Shu payt bekatga avtobus kelib to'xtadi. Unga chiqib olgan Jamshid ko'zdan yo'qolguncha mushuk-chaga termulib qoldi. Sovuq havo endi unga ta'sir qilmayotganday edi.



KITOGBA IXLOS

Yarim kecha, osmonda charaqlagan yulduzlar mast uyquda yotgan yerga nazar tashlab, bir-birlariga ko‘z qisib qo‘yishadi. Kunduzi bozorchilarning g‘ala-g‘ovuridan charchagan Buxoro sukunat qo‘ynida orom olmoqda. Ahyon-ahyonda uzoqlardan dovul tovushi eshitiladi: tun posbonlari uyqudagisi shaharni qo‘riqlab yuradilar.

Ayvonning chekkasida yotgan Sitorabonu bir uyquni olib, o‘rnidan turib o‘tirdi, o‘g‘lining haligacha yotmaganini ko‘rib:

- Hoy o‘g‘lim, shu mahalgacha o‘tiribsamu? Yosh joningga muncha javr qilmasang? Yot hozir, – dedi.
- Onajon, yana biroz o‘tirishga ijozat bering. Juda ajoyib kitob ekan.
- Qo‘yaver, mutolaa qilaversin, – degan tovush eshitildi darichalari lang ochiq xona ichidan. – Kishi shavq-zavq bilan ishlasa, hech toliqmagay... – Husaynning otasi shu gapni aytdi-yu, yo‘tali tutib qol-



di. O'g'li tayyorlab bergan doridan ichib tinchidda, boshini yostiqqa qo'ydi. Tabibi hoziq deb nom chiqargan o'g'lidan u xursand edi.

Qirqlarga borib qolgan bo'lsa-da, tarovatini yo'qotmagan Sitorabonu erining gapidan qanoat hosil qilib o'g'lidan so'radi:

- Kecha bir tangaga sotib olgan kitobingmi?
- Ha, buni qarangki, shu mahalgacha boshimni qotirib yurgan muammolarni osonlikcha hal qilib berdi-ya, bul kitob.

Onasi uning gapiga yaxshi tushunmagan bo'lsa ham, riyozat chekib ilm o'rganayotgan o'g'lining yusak martabaga yaqinlashib qolganini ichki his bilan angladi va mayin jilmayib, boshini yostiqqa qo'ydi.

Husayn har kuni yarim kechagacha o'tirib, yunon va arab hukamolarining tib va falsafaga doir kitoblarini o'qir edi. Uyqusi kelib, ko'ziga qum tiqilganda allaqanday bir o'tni qaynatib tayyorlangan doridan bir xo'plam ichar, ko'zi yana ochilib, zehni ravshanlashardi. Bugun esa onasining so'zini qoldirmay, o'sha dorisidan ichmadi. Kelgan joyiga xatcho'p solib, kitobni tokchaga olib qo'ydi-da, o'rniga kirib yotdi.



Husayn shu bugun ertalab sahof bozorni aylanib yurganda chodra ichidan qo'lini chiqarib, kitob ushlab turgan bir kampirga ko'zi tushib qolgan edi.

- Onajon, kitobingizni soturmisiz?
- Ha, juda yaxshi kitob.

Yigitcha uning qo'lidagi kitobni olib, varaqlay boshladi. Bu – Farobiyning „Fasusi al-hikam“ degan kitobi bo'lib, Arastuning „Moba'dattabia“ degan kitobiga yozilgan sharhi edi. Husayn shu mahalgacha „Moba'dattabia“ni bir necha marotaba o'qigan bo'lsa ham, sira tushunmagan edi. Mana endi uning kalitini topdi. Farobiy ulug' yunon hakimining juda chigal falsafiy mulohazalari mag'zini chaqib bergen edi...

Saroy vaziri Husaynni qo'lidan ushlab, qilichlarini yalang'ochlab yelkalariga qo'yib turgan soqchilar orasidan olib o'tdi va eng ichkaridagi bir xona oldiga olib borib to'xtatdi. Eshikning ikki tomonida chiroyli ikki turkman yigit soqchilik qilib turardi. Vazir barmog'i bilan shu yerda turishni buyurib, o'zi xona ichiga kirib ketdi. Oradan besh-o'n daqiqa o'tgach, eshik ochilib, yosh hakimni ichkariga taklif etdilar. Uzun, rang-barang oynali darchadan xira nur tushib tur-



gan, shiftlari muzayyan, devorlari o'ymakor xonaga kirib, Ibn Sino to'rdagi ipak to'shak ustida yostiqqa suyanib o'tirgan rangpar kishiga ta'zim qildi. So'ngra uning ishorasi bilan to'shak yoniga borib, cho'kka tushdi. Yosh hakimning dadil boqishidan, tip-tiniq nurli yuzidan, katta-katta ko'zlaridan kamtarligi va shu bilan birga o'ziga ishonganligi bilinib turardi.

Nuh binni Mansur o'z huzurida ulug' iste'dod egasi bo'lgan bir hakim o'tirganini payqadi va uning sha'niga munosib muomala qilib, hol-ahvol so'radi. Ibn Sino o'zini bardam tutib, uning savollariga shoshmay javob berdi. U podshoning kasali nima ekanligini tabiblardan eshitgan bo'lsa-da, o'z hamkasblarning odatiga muvofiq, keskin harakat bilan tojdor bemorning tomirini ushlab ko'rdi. U o'z oldida Movarounnahrning podshosi emas, balki oddiy kasal kishi yotgandek, uning sarg'aygan yuziga tikilar, tilini ko'rsatishini so'rар, podshoning sha'niga nomunosib savollar berardi. (Bir necha xil kasali bo'lgan binni Mansur „bobosir“ kasaliga ham mutbalo edi.) Saroy vaziri podsho huzurida o'zini sokin va betakalluf tutgan hakimni birinchi martaba ko'rishi edi.





Abu Ali podshoning javobini tinglab, peshanasini ushlagancha o'ylab qoldi. Keyin achchiq ovqat, ichkilikdan parhez qilib, ko'proq shirguruch yeb, ho'l meva iste'mol qilishini tayinlab o'rnidan turdi.

– Zoti oliylari, bandalariga ijozat bersinlar, kech-qurun dori tayyorlab yuborgayman. Ko'proq meva iste'mol qilsinlar, ammo Buxoro mevasi janoblariga zararlidir. Mevani Samarqanddin keltirib yesinlar. – Ziyrak tabib o'zining xulq-atvori saroy vazirida noshista ta'sir qoldirganini payqagan edi. – Agar hurmat shartlarini joyiga keltirmagan bo'lsam, afv etgaylar.

Binni Mansur bilinar-bilinmas jilmayish bilan undan xafa bo'limganini bildirgandek bo'ldi. Yosh hakim ta'zim qilib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Bir haftadan keyin saroyga kelgan Ibn Sino dordarmonlari bemorga yaxshi ta'sir qilganini ko'rdi. Rangi tozargan Nuh binni Mansur uni ochiq chehra bilan qarshi oldi va yosh tabibdan behad minnatdor bo'lib, nima tilasa berishga tayyor ekanini bildirdi. Yosh tabib uning oldiga tiz cho'kib, imkoni yo'q bo'lgan bir narsani so'ragandek past tovush bilan:

– Menga saroy kitobxonasida mutolaa qilmoqqa ijozat bersalar, bas, – dedi. – Pul kerak emas.



– Barakalla! Umrимda puldan ilm-urfonni yuqori qо'yaturgan odamni birinchi ko'rishim. – Podsho iljayib uning iltimosini bajon-u dil qabul qilganini izhor etdi.

– Mammuniyat bilan, kitobxonaning to'ri sizniki. Janoblariga hech bir buxorolikning qо'li tegmagan kitoblarni toptirib bergayman...

Ibn Sino go'yo oltinni olgandek bo'lib kechasi-yu kunduzi kitobxonadan chiqmay qо'ydi.

Oradan ko'p o'tmay, samoniylar tarixida ketma-ket fojiali voqeа ro'y berdi. Qorabug'roxon boshchiligidа sharqdan bosib kelayotgan ko'chmanchilar Samarqand yaqinida Ayach boshchiligidagi qо'shinni tor-mor keltirib, o'zini asir qilib oldilar va Samарqандни ishg'ol etib, yurishni davom ettirdilar. Nuh binni Mansur tomonidan yuborilgan sipohsolar Foiq xiyonat qilib, dushman tomoniga o'tdi. Shahar aholisi Buxoro devorlari ostiga kelib qolgan istilochilar bilan jang qila boshladi.

Ibn Sino o'qishni yig'ishtirib qо'yib, boshqa jarrohlar qatorida qilich zarbidan, o'q zahmidan azob tortayotgan jangchilarga yordam berishga kirishdi.



Arkning ro'parasidagi ko'hna saroy yaradorlarga to'lib ketgandi. Yosh hakim kechkacha qilich yarasiga malham surtish, badanga sanchilgan o'qni olib, yarasini bog'lab qo'yish bilan ovora bo'ldi. U horib-charchab dam olish uchun o'tirmoqchi bo'lganda, soniga o'q sanchilib qolgan bir kosib yigitni olib keldilar. Ibn Sino yechib tashlangan qonli yaktagini yana kiyib, qo'lida nashtar bilan yaradorning tepasiga keldi. O'qning uchi chiqib qolsa, uni qirqib sug'irib olish qiyin emasdi, ammo uchi chiqmay qolgan o'qni olish amri mahol.

Ibn Sino o'ylanqirab turib dedi:

- Behush dori berib, yorib olishga to'g'ri keladur.
- Yo'q, – dedi rangi sarg'ayib ketgan bo'lsa-da, o'zini bardam tutishga uringan yarador. – Qirqqa chidagan qirq birga ham chidagay.
- Barakalla, azamat yigit ekansiz. Sizga azob bermay, chiqarib olg'ayman. Meni tanirsiz-a?
- Ha, amirni davolagan atoqli hakimsiz. Sizga ishonadurman.
- Juda soz, – dedi Ibn Sino uning qanshiriga qattiq tikilib turib. – O'qni xuddi xamirdan qil sug'urgandek sug'urib olg'aymen, sezmay ham qolursiz.



Yosh hakim uning son go'shtini ikki pallaga ajratib o'qni oldi, so'ngra malham qo'yib, yopishtirdi-da, tикиб, bog'lab qo'ydi. Tashriq vaqtida tishini tishiga bosib yotgan yigitdan sado chiqmadi.

– Barakalla, azamat ekansiz, koshki edi hamma sizdek mard bo'lsa!

Yosh hakim yigitga kulib boqdi-da, qo'lining qonini yuvib, dam olgani ketdi...

* * *

Ibn Sino odati bo'yicha, osmonga qarab, Hulkar yulduzi qayerga kelganini bilmoqchi bo'ldi, shu payt Registon tomon qizarib, osmonga uchqunlar sachrab turganini sezdi. O'qtin-o'qtin olovning qip-qizil tillari qorong'i osmonni yalar, uzoqdan qiy-chuv ovozlar eshitilardi. Yosh hakimning yuragi bir falokatni sezgandek dukillab urib ketdi. Darrov kavush-mahsisini, choponini kiyib, onasini uyg'otdi.

– Onajon, Registon maydoni yaqinida bir uyga o't ketganga o'xshaydur, borib kelay, qo'limdan kelganicha o't o'chirishga yordam beray.

- E, qo'ysang-chi, o'g'lim. Sensiz ham o't o'chiruvchilar topilib qolar.
- Yo'q, onajon. Bormasam bo'lmaydur. Uyqum ham o'chib ketdi. – Yosh yigit ko'ngliga kelgan shubhani onasiga aytib, yong'in chiqayotgan tomonga chopdi.

Ibn Sino halloslab Registon maydoniga kelganda ko'nglini ezayotgan shubha haqiqat bo'lib chiqqanini angladi. Yuzlab kishilar qo'lma-qo'l chelak uzatib maydon o'rtasidagi hovuzdan olingan suv bilan kitobxonaga tushgan o'tni o'chirishga urinar edilar. Madrasa talabalarining, tevarak-atrofdagi mahalla ahlining jonbozligiga qaramay, yong'in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshididan tutun aralash chiqib turardi. Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha, moydek ta'sir qilayotgandek edi. Ba'zilar mehnatlari bekorga ketayotganini ko'rib, qo'llarini qo'ltingqa urdilar. Odamlar orasida asrlardan beri to'plangan boylikning tutunga aylanib, osmonga uchi-shidan zavqlanayotgan kishilarni ko'rish mumkin edi.

Ibn Sino xuddi yaqin bir kishisini ko'mib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo'ltiqlagan holda uyiga jo'nadi...

Oradan ikki oycha vaqt o'tdi. Shu vaqtgacha o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan Ibn Sino bir kuni uyiga xursand bo'lib keldi.

— Suyunchi bering, onajon, Qorabug'roxon qo'shini Buxoroni tashlab chiqib ketmoqchi. Qo'liga yarog' olgan Buxoro xalqi turkmanlar bilan birgalikda ularni haydab chiqarmoqda, talab olingan mollarini qaytarib olmoqda.

Bir necha kundan keyin Amuldan (Chorjo'ydan) Nuh binni Mansur Buxoroga kirib keldi. Yana sav-dogarlar do'konlarini ochib, kosiblar dastgohlarini yurgizib yubordilar. Biroq vazirlar o'rtasidagi nifoq, ayrim viloyat hokimlarining isyoni, ko'chmanchilarning hujumi somoniylar sulolasini qurban imoratni kundan-kunga yemirmoqda edi. Keksa Nuh vazirlarini bir-biri bilan yarashtirolmay, mamlakatda tinchlik o'rnatolmay, dog'-hasratda o'lib ketdi. Uning o'g'li Abdulhoris Mansur ham bebosh vazirlar, isyonchi



hokimlarni jilovlay olmadi. Qorabug'raxonning o'g'li Nasrga qarshi yuborilgan sarkarda Yanoltakin uning tomoniga o'tib ketdi. Somoniylar davlati xuddi ichi qurtlagan olmadek uzilib, yana istilochilar qo'liga tushdi.

Buxoro ko'chmanchilar qo'liga o'tgandan keyin falsafa va dunyoviy ilm-fan ahllari quvg'in ostiga tushdi. Ibn Sino qora quzg'unlar uyasiga aylangan shaharni tark etib, o'ziga ma'rifatparvar bir hokim, homiy izlash to'g'risida o'ylay boshladi. Lekin uning otasi vafot etib, onasi beva qolgan, uni tashlab ketishga ko'zi qiymas edi. Sochlariga oq oralab ko'zlarining atrofini ajin bosgan Sitorabonu o'g'lining qanday ahvolga tushib qolganini, nima uchun peshanasini tirishtirib yurganini yaxshi bilar edi. Bir kuni kechki ovqatdan keyin sharbat ichib dam olib o'tirganlarida, rangi biroz siniqqan Husaynga qarab:

– O'g'lim, nima to'g'risida bosh qotirayotganining ni bilib turibman, – dedi xo'rsinib. – O'z shahrинг o'zingga torlik qilib qoldi. Xorazmlik qo'shnimiz Abu Bakr bobo xotiniga: „Husayn zudlik bilan Buxorodan chiqib ketsin, chiqib ayt“, – debdur. Shu gapni



eshitdim-u kechasi bilan uxmlay olmay chiqdim. Abu Bakr Barakiy o'qimishli odam, ulamolarning sirri asroridan boxabar, bir narsani bilmay gapirmaydur. Jon bolam, boshim omon bo'lsin desang, shahardan chiqib ket, o'zingga tinchgina bir joy top. Menga xat yozib tursang shuning o'zi kifoya, sening eson-omon yurganiningni bilib, tinchgina umr kechiraman.

Onasining gapi qay tomonga og'ishni bilmay turgan tarozuning bir pallasiga qo'yilgan toshdek ta'sir ko'rsatdi.

Husayn qat'iy qarorga kelib, qaddini ko'tardi-da:

– Mayli, sizning aytganingiz bo'lsin. Bul yerda qolsam, bir kun emas, bir kun mening oyog'imga bolta uradurlar. Men erkin o'ylab, erkin yashashga o'rganib qolganman. Menga oq fotiha bering, safar otini egarlab yo'lga chiqay! Siz ham tinch bo'ling, men ham.

– Qayerga borsang ham, Bir-u bor seni o'z panohida asrasin, ishlaringga rivoj berib, falokatlardan seni asrasin... Ammo xat yozib turishni unutma!

Ibn Sino onasi bilan xayrlashar ekan, tokchadan bir kitobni olib o'pdi-da, uni peshanasiga tegizib,



so'ngra onasining qo'liga tutqazdi. Bu – Farobiyning „Fasusi al-hikam“ degan kitobi edi.

– Onajon, shul kitobni biror serijtihod tolibul ilmga sovg'a qilarsiz.

– Xo'p. Sening bosh-ko'zingdan sadaqa bo'lsin bul kitob. Xayr, qayerda bo'lsang ham savdogarlardan xat yuborib, sihat-salomatliringni bildirib tur.

Ibn Sino orqasiga qarashdan qo'rqb, darvozadan chiqdi-da, Gurganj saroyi tomon yo'l oldi.





ADASHISH

Jo'ra ko'pdan beri dadasiga „Botinka olib bering“, deb yurardi. O'tgan dam olish kuni dadasi, oyisi – hammalari mashinada bozor aylangani chiqishdi. U oyisi bilan bozorga kirib ketdi, dadasi mashinada qoldi.

Oyisi Jo'raka:

– Yengimdan ushlab yur, bo'lmasa adashib qolasan, – deb tayinladi.

Bir mahal Jo'ra ikki bolaning tortishayotganini ko'rib qoldi. Ular aka-uka bo'lsa kerak, kattasi kichigini qitiqlab qochar, u bo'lsa yetib olib musht urmoqchi bo'lar edi. Jo'ra alahsib, oyisining yengini qanday qo'yib yuborganini bilmay qoldi. Oxiri aka-ukalar quvlashib ko'chaga chiqib ketishdi. Jo'ra oyisini yo'qotib qo'ydi. Oyim ko'chaga chiqib ketgandir, deb o'ylab ko'chaga yugurdi. Endi u dadasingin mashinasini qidira boshladi. Lekin ko'cha ko'zga boshqacha ko'rinar, dadasi ham, mashinasi ham yo'q edi. Dadasini ham topolmagandan keyin yig'lay boshladi. Buni ko'rgan haligi bolalar tillarini chiqarib kalaka



qilishdi. Jo'ra avval yig'lamasa ham endi yig'ladi. To'g'rida katta temir darvoza bor edi. Hovlida uch-to'rt kishi mashina tuzatayotgan ekan, ulardan biri:

– Nega yig'layapsan, hoy bola? – deb Jo'raning oldiga keldi.

– Adashib qoldim, – dedi Jo'ra.

Haligi kishi uni uyga olib kirdi. Telefon qilib, kimgadir uning adashib qolganini aytdi.

– Hozir oying keladi, bo'ldi, yig'lama, – deb ovutdi.

Birozdan so'ng mashina yetib keldi. Undan ikkita militsioner tushganini ko'rib, Jo'ra qo'rqib ketdi. Nega adashib yuribsan, deb qamab qo'yishsa-ya! Militsionerlar ham gapini so'roqdan boshladni:

– Isming nima?

– Jo'ra...

Uni ko'tarib mashinaga chiqarishdi. Nima qilib qo'yding o'zi? Nega oyisining aytganiga kirmadi. Mana endi quloksizligi uchun qamoqqa olib ketishyapti. Militsiya bo'limiga yetganlarida uni mashinadan tu-shirishdi. Eshikdan chiqib kelayotgan oyisini ko'rib, Jo'ra yig'lab yubordi. Oyisi bag'riga bosib erkaladi...



YAXSHI AMAKI

Ko‘cha bo‘yidagi ariqning suvi o‘ynoqlab soy tomon oqadi. Suv sal ko‘paysa bormi, ariqning sayoz joyidan toshib ketadi.

– Hoy bola, ketmoningni tezroq olib kel, – dedi bu holdan xavotirlanib turgan kishi, maktab bog‘iga ketayotgan G‘iyosni ko‘rib. G‘iyos bexos ovozdan ziyrak tortdi. Quyosh nuridan yarqirab turgan yangi ketmonchasini darhol yelkasidan qo‘liga oldi. O‘sha kishi tomon yurdi.

„Vaalaykum assalom“ – balandroq aytilgan bu so‘z G‘iyosni hayratga soldi: „Salom bermasimdan oldin nega alik oldi. Piching qilyaptimi, salom bermadi, deb. Yaqinroq borganimda salom beraman-ku“.

– Assalomu alaykum! Kechirasiz, amaki.

Amaki esa lom-lim demay, G‘iyosning qo‘lidan ketmonchani oldi. G‘iyosning „Siz urinmang, o‘zim qilaman buni“, deganiga qaramay ariqning toshay deb turgan joyiga tuproq tashlay boshladи.

– Assalomu alaykum, – dedi G‘iyos bu gal yolborish ohangida. Amakining ko‘zlari shaldirab



– Nega deysanmi? – debdi Qovog‘arivoy.– Axir sen shu qisqagina umringda ham birovlar uchun mehnat qilasan, ular uchun kerak bo‘lsa, joningni ham berasan. Sen o‘zing uchun ham yashashni o‘rgangin-da, – debdi.

Asalarioy unga shunday deb javob qilibdi:

– Men shu qisqa umrimning har bir daqiqasini insonlarga baxshida qilganimdan afsuslanmayman. Chunki bu qilgan ishlarim bilan ularning umrlarini uzaytiraman, dardlariga shifo bo‘lishi uchun asal beraman. Ular esa, asalimdan yeb, shifo topadilar, menga rahmat aytadilar! – debdi va:

– Xo‘sish, sen o‘zing nimang bilan birovlargaga foyda keltirasan? – deb so‘rabdi.

Shunda Qovog‘arivoy:

– Birovlar bilan nima ishim bor? Biz faqat o‘zimiz uchun yashaymiz, – debdi.

Ular uzoq bahslashibdilar, lekin hech bir-birlariga gaplari ma’qul bo‘lmabdi. Shunday qilib ular o‘z bilganlaricha hayot kechira boshlabdi.

Kunlardan bir kun ular yashab turgan joyga o‘t ketibdi. Shu olovda u yerdagi o‘t-o‘lanlar, dov-daraxtlar,

ho'l-u quruq baravar yona boshlabdi. Asalari uyasini bu olovdan olib qolish uchun butun qishloq yig'ilibdi. Asalarilar joylashgan qutilarni mashinalarga yuklab, boshqa xavfsiz joyga olib ketibdilar.

Qovog'arivoy uyasi esa olov ichida qolib, kul bo'libdi. Shunday qilib, ularning qismatlari yakun topibdi. Yaxshilik hech qachon javobsiz qolmas ekan. Asalarioyning insonlarga qilgan yaxshiligi evaziga hayoti saqlab qolinibdi.

QUDUQDAGI SUHBAT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda chekka bir qishloqda quduq bo'lgan ekan. Shu yerlik aholi quduqdan suv olib, o'zlarining ehtiyojlarini qondirib yashab kelar ekanlar. Shu qishloqda judayam erka, o'zining aytganidan qolmaydigan, qaysar, urishqoq, „o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib qoladigan“ bir bola yashar ekan. U ko'chaga chiqsa, o'z tengqurlari bilan arzimagan narsaga janjallahib qolarkan. Mabodo ular o'rtalariga kattalar tushgudek bo'lsa, ularni haqorat qilib, gap qaytarar ekan.



Agarda ota-onasi aralashgudek bo'lsa, ularni ham yomon gaplar bilan so'kib, haqoratlar ekan. Xullas, hamma undan bezor ekan.

Kunlardan bir kun ota-onasi uni suv olib kelish uchun quduqqa yuboribdi. Avvaliga u rozi bo'lmabdi, lekin ota-onasi yalinib-yolvorib ko'ndirishibdi. Shunda u: „Xo'p, mayli“, deb qo'liga chelakni olib, suv olib kelish uchun quduq tomonga yo'l olibdi. Buni ko'rgan ota-onasi rosa quvonishibdi. Bola quduqqa yetib borib chelakni tashlabdi. Lekin o'zi hech bir ishni qilib, uddalab ko'rmanligi sababli, nima qilishni bilmay, quduqqa engashib ko'ribdi. Natijada o'zi ham quduqqa tushib ketibdi. U qichqirib, dod-faryod sola boshlabdi, lekin uni hech kim eshitmabdi. Shunda birdan quduqda qandaydir badbashara dev paydo bo'lib:

– Nima bo'ldi, nega baqir-chaqir qilyapsan? – deb so'rabdi.

Bola nima bo'lganini devga aytib beribdi.

– Xo'sh, nima gunohing uchun seni yolg'iz bu yerga yuborishdi. Sen qilmishingga yarasha jazo olyapsan, – debdi dev.

– Men hech qanday gunoh ish qilganim yo‘q, – deb javob beribdi bola.

– Bunday bo‘lishi mumkin emas, bu senga qandaydir gunohing uchun jazo bo‘lyapti, – debdi dev.

Bola o‘z so‘zida turib olibdi. Dev esa uning so‘ziga ishonmabdi va:

– Endi sen umrbod shu yerda qolib ketasan! – debdi.

– Yo‘q-yo‘q, menga yordam bering, iltimos qilaman!

– Xo‘p, yordam beraman, lekin bitta shartim bor. Sen kattalarning gapiga quloq solib, ularni hurmat qilishing kerak. O‘z tengqurlaring bilan ham yaxshi muomalada bo‘lishing zarur. O‘zingdan kichiklarni xafa qilmasliging lozim!

– Ha, shunday qilaman, faqat chiqib olishimga yordam bering, – debdi ko‘z yoshini artgancha bola.

Shunda dev:


– Senga qanday ishonsam bo‘ladi? – debdi.

Bola:



– Mana, qasam ichaman! – deb qasam ichibdi.
Dev unga ishonib, quduqdan chiqishiga yordam
beribdi.

Bu voqeadan so'ng u yaxshi bolaga aylanib
qolibdi. Agarda biror-bir nojo'ya ish qilmoqchi bo'lsa,
o'sha ichgan qasami esiga tushib, darrov shashtidan
qaytib, faqat yaxshi ish qiladigan bo'libdi.





MUNDARIJA

Chumchuq bola.....	3
Gul va tikan.....	6
Qor yog'moqda	7
Qoplon	8
Musicha	11
O'xshamagan rasm.....	12
Ona qo'shig'i.....	15
Yomonga qo'shilib.....	17
Yelkanchalar.....	19
Gul va yurak.....	20
Kimning ismi chiroyli?	22
Shifokor	23
Sichqonning dadasi	24
Oymomo	25
Jazo kimnniki	25
Minnat.....	26
Xiyonat.....	27
Burchini anglash	28
Olma qoqi	29
Sehrli tayoqcha	30

Urush urush-da	31
Tish og'riydi.....	31
Rasm	33
Dars jadvali	36
Rang almashgan mevalar	38
Qizg'anchiq.....	40
Shokir harbiy xizmatga boradi.....	43
So'ralmay qolgan gap	45
So'nmas quyosh	47
Navro'z tuhfasi	48
Tanbeh	51
Toshbaqa nega gapirmaydi?	52
Kapalak.....	54
Sepsang, sepaver.....	57
Bo'laklangan olma	58
Zaynabning mushugi nega arazladi?	61
Oltin kalit	64
Chiroyli salom	66
Zina.....	68
Ahillik	72
Ajoyib topishmoq	75
Saboq	78
Ra'noxon bilan suhbat	81
Burgut	83
Tekin daromad.....	86

Kichik topag'onlar	88
Cho'pon toychoq.....	90
Buvining ish quoli.....	95
Qatiq	97
Araz	99
Xazinalar xazinasi.....	103
Xayr, bog'chajon, bog'cham.....	108
Yetimtog'dagi ov	113
Yaxshilik izlagan bola.....	114
Kitobga ixlos	117
Adashish.....	131
Yaxshi amaki	133
Qovog'ari va asalari	135
Quduqdagi suhbat	137

83.8(50')
X 98

Xo'jaahmedov, S.

Do'stim mening – kitobim [Matn]: 4-kitob/S.Xo'jaahmedov.–Toshkent: „Ensiklopediya“ nashriyoti MCHJ, 2022. 144 b.

ISBN 978-9943-07-757-7

UO'K: 821.512.133-9
KBK: 83.8(50')

Tuzuvchi:
Sunnat XO'JAAHMEDOV

Rassom:
Shohrux TOSHTURDIYEV

DO'STIM MENING – KITOBIIM

4


(Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun hikoyalar)

*„Ensiklopediya“ nashriyoti
Toshkent–2022*

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrirlar: *Shohrux Toshturdiyev,
Shahnoza Sobirova*
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.09.2022.
Bichimi $70 \times 90^1/_{16}$. Kegli 16. AG_Helvetica garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozı. Shartli b.t. 9,0.
Hisob-nashriyot t. 9,0. Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma № 726-22.
Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.



KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALAR UCHUN **HIKOYALAR**



Toshkent shahar,
Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

6 +

ISBN 978-9943-07-757-7

A standard linear barcode representing the ISBN 9789943077577.

9 789943 077577